

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
AL – XORAZMIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
TARIX FAKULTETI
TARIX KAFEDRASI



5120300-Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi

bakalavr darajasini olish uchun

Tarix fakulteti IV bosqich talabasi Allanazarov Feruzbek Umid
o`g`lining

Jadidchilik va “Yosh xivaliklar” harakatining qisqacha tarixi

mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

t.f.n. professor M.Matniyozov

Urganch – 2015

M U N D A R I J A

Kirish.....	3-9
--------------------	------------

I BOB. Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishi.

1.1. Jadidchilikni paydo bo`lishi va uning mashhur namoyondalari.....	10-23
1.2. Jadidchilikning maqsad va vazifalari.....	23-26

II BOB. Xiva xonligida Jadidchilik va Yosh xivaliklar xarakati.

2.1. "Yosh xivaliklar" harakatining vujudga kelishi, uning maqsad va vazifalari.....	27-34
2.2. 1917-yilda Rossiyada ro`y bergan "inqilobiy" o`zgarishlar va ularning Xiva xonligi siyosiy hayotiga tasiri.....	35-43
2.3. "Yosh xivaliklar" xayrixoxligida bolsheviklar tomonidan Xivada amalga oshirilgan davlat to`ntarishi, Xiva xonligini tugatilishi hamda Xorazm Xalq Sovet Respublikasini ( XXSR) o`rnatilishi	43-58

Xulosa.....	59-62
--------------------	--------------

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	63-65
--	--------------

Ilova

"Inson o'zligini anglagani, nasl-nasabini
chuqurroq bilgani sari yuragida Vatanga
muhabbat tuyg'usi ildiz otib, ulg'aya boradi"¹.

Islom Karimov

Kirish

Respublikamiz mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq xalqimizning o'tmish tarixi boy madaniy merosini o'rganish, uni saqlash va kelajak avlodga yetkazishga hukumatimiz tomonidan aloxida e'tibor berildi. Xususan, yurtboshimiz I. A. Karimov o'zining "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" nomli asarida "O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi... Haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa o'zlikni anglash mumkin emas... Davlatimiz, millatimizning haqqoniy ilmiy tarixini yaratish keng jamoatchiligimiz uchun g'oyat muhim va dolzarb masalaga aylanishi lozim"² deb ta'kidlagani bejiz emas.

"Chorizm mustamlakasi davrida marifat g'oyasini baland ko'tarib chiqqan Jadid boblarimizning faoliyati bunga yana bir yorqin misol bo'la oladi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Isxoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir kabi yuzlab marifatparvar, fidoyi insonlarning o'z shaxsiy manfaati, xuzur halovatidan kechib, el ulus manfaati, yurtimizni taraqqiy toptirish maqsadida amalga oshirgan ezgu ishlari avlodlar xotirasidan aslo o'chmaydi"³.

Bundan tashqari tarixni haqqoniy yoritish uchun mafkura ham kerak bo'ladi. Prezidentimiz mafkura haqida bunday degan edi, "Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo'lmasa odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yoqotishi muqarrar. Ikkinchidan, qayerdagi mafkuraviy bo'shliq vujudga kelsa o'sha yerda begona mafkura hukmronlik qilishi tayin. Buning isboti xox tarixdan,

¹ Каримов.И.А. "Юксак маънавият-енгилмас куч".Т.: "Маънавият". 2008-йил.90- бет.

²Каримов.И.А."Тарихий хотирасиз келажак йўқ ", Биз ўз келажакимизни ўз қўлимиз билан қурмамиз. – Т. 1999-йил. 138-бет.

³ Каримов.И.А. "Юксак маънавият-енгилмас куч".Т.: "Маънавият". 2008-йил. 35-36- бет.

xox zamonamizdan ko‘plab misollar keltirish qiyin emas”⁴. Malumki, har qaysi xalq yoki millatning tafakkuri, turmush tarzi, manaviy qarashlari o‘z o‘zidan, bo‘sh joyda shakllanib qolmaydi. Ularning vujudga kelishi va rivojlanishida aniq tarixiy, tabiiy va ijtimoiy omillar asos bo‘lishini hammamiz yaxshi bilamiz. Otabobolarimiz necha asrlar mobaynida shu bepayon mintaqada qanday hamjihat bo‘lib, qanday qadriyatlar asosida yashab kelgan bo‘lsa, bugun ham, tabir joiz bo‘lsa, tarix va hayot gardishi, tabiatning o‘zi bizni – butun o‘rta osiyo xalqlarini aynan ana shunday do‘stlik va hamkorlik ruhida hayot kechirishga davat etmoqda. Bir soz bilan aytganda, tarixiy voqealikka mana shunday qarash, jamuljam bo‘lib yashash tuyg‘usi biz uchun hayot falsafasiga, yana ham aniqrog‘i hayot falsafasiga, yana ham aniqrog‘i, hayot qoidasiga aylanib ketgan. Zamonaviy tilda aytadigan bo‘lsak, bu milliy mentalitetimiz asosini tashkil etadigan, bizni boshqalardan ajratib turadigan shunday bir xususiyatki, uni sezmaslik, anglamaslik, ko‘rmaslik umuman mumkin emas.

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekistonda mustaqillikning e‘lon qilinishi, xalqni Sovet mustamlakachiligidan ozod qilib, Respublikada adolatli, demokratik, insonparvar jamiyat qurishga, bozor iqtisodiyotiga o‘tishga yo‘l ochib berdi. Mustaqillik tufayli yurtimiz tarixi, ma‘naviy qadriyatlarimiz, qadimiy madaniyatimiz tiklana boshlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov mustaqillik sharoitida qadimiy madaniyatimizning tiklanishi sabablarini ko‘rsatib shunday degan edi: "Jamiyat taraqqiyotining asosi, uni maqarrar xalokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch ma‘rifatdir. Asrimiz boshida Turkistonda kechgan voqealarni bir eslang. Nega bu o‘lkada o‘sha yillari ma‘rifatchilik harakati har qachongidan ham kuchayib ketdi. Negaki, podsho Rossiyasi asoratiga tushib qolib, butkul tanazzulga yuz tutgan o‘lkani yo‘qotishga, xalqning ko‘zini ochishga faqat ma‘rifat orqaligina erishish mumkin edi. Ma‘rifatparvarlik biz uchun bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q, yo‘qotmaydi ham. Aql-zakovatli, yuksak ma‘naviyatli kishilarni

⁴ Каримов.И.А.” Биз ўз келажакимизни ўз кўлимиз билан кўрмамиз”.Т.: “Ўзбекистон”. 1999-й.146-бет.

tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi" ⁵.

Prezidentimiz I.Karimov "Milliy g'oya bo'lsa, maqsad oydinlashadi. Ezgu maqsad esa har bir kishini safarbarlikka davat etadi, jamiyatni yanada birlashtiradi. O'z milliy g'oyasi milliy mafkurasiga ega davlat mustahkam, qudratli va obod bo'ladi." ⁶ deb aytgan edi.

Chorizm mustamlakasi davrida ma'rifat g'oyasini baland ko'tarib chiqqan jadid bobolarimizning faoliyati bunga yana bir yorqin misol bo'la oladi. Mahmudxo'ja Bexbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Ishoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir kabi yuzlab ma'rifatparvar, fidoyi insonlarning o'z shaxsiy manfaati, huzur-xalovatidan kechib, el-ulus manfaati, yurtimizni taraqqiy toptirish maqsadida amalga oshirgan ezgu ishlari avlodlar xotirasidan aslo o'chmaydi ⁷. Prezident Islom Karimov ta'lim va tarbiya hususida "Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi - bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi. Bu haqda fikr yuritganda, men Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" degan chuqur ma'noli so'zlarini eslayman. Buyuk ma'rifatparvar bobomizning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi" ⁸ degan edi.

Sho'rolar hukmronligi davrida bazi tarixchilar Jadidlar va Yosh xivaliklarning aniq bir dasturi bo'lmagan, deb davo qiladilar. Bu fikr noto'g'ri. Yosh xivaliklar partiyasining rahbari Polvonniyoz Xoji Yusupov "Xotiralari" asaridan, uning ruscha tarjimasidan o'z ilmiy ishlarida foydalangan bir qator tarixchilar, jumladan G'. G.Nepesov, K.Muhammadberdiyev, M. V.Pogorolskiy,

⁵ Каримов.И.А."Тарихий хотирасиз келажак йўқ " Т.: "Шарқ". 1998. 7-бет.

⁶Каримов.И.А."Озод ва обод ватан, Еркин ва фаравон ҳаёт-пировард мақсадимиз."Т.: "Ўзбекистон"2000-йил. 473-бет.

⁷ Каримов.И.А. "Юксак маънавият-енгилмас куч"Т.: "Маънавият". 2008-йил. 35-36-бетлар..

⁸ Каримов.И.А. "Юксак маънавият-енгилмас куч"Т.: "Маънавият". 2008-йил. 44-бет.

N.X.Qalandarovlar “Xotiralar” muallifi P.X.Yusupovga rahmatlar aytish o‘rniga, tarixiy faktlarni soxtalashtirib, uning boshiga tuxmat va bo‘htonlar yog‘dirib uni “Burjua millatchisi”, “Xalq dushmani” deb ayblagan adilar. O‘sha davrda milliy tariximizning boshqa ancha masalalari ham soxtalashtirilgan.

Xaqiqiy tariximizni xolisona, manbalar asosida qaytadan yozish hozirgi kunning dolzarb masalaridan biridir.

Bitiruv malakaviy ishining o‘rganilish darajasi Biz bu yerda Xiva xonligida jadidchilik va “Yosh xivaliklar” tarixiga e‘tibor bermoqchimiz. Bu masala aloxida maxsus ravishda ilmiy jihatdan tadqiq qilinmagan. Professor M.Matniyazov taxriri ostida “Yosh xivaliklar” partiyasining raisi Polvonniyoz Xoji Yusupov “Xotiralari”, “Yosh xivaliklar tarixi” nomi ostida Xorazm nashriyotida 1999-yilda chop qilingan. Polvonniyoz Xoji Yusupov bu asarni o‘zining kundalik daftarlari asosida 1926-yilda yozgan. Asarda asosan 1910-1924-yillar mobaynida Xorazmda, Turkistonda ro‘y bergan tarixiy voqealarni o‘ziga xos uslubda o‘zbek tilining Xorazm shevasida, juda qiziqarli tarzda bayon qilgan.

Polvonniyoz Yusupov asarining qimmatini va o‘sha davr tarixi haqida chop qilingan boshqa asarlardan farqi shundaki, u komunistik g‘oya va aqidalardan xolis holda o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, bilgan, eshitgan bevosita ishtirok qilgan tarixiy voqea va xodisalarni o‘zicha baholab ro‘y-rost hikoya qiladi. U o‘z xotiralarni kelajak avlodga meros qilib qoldirish maqsadida o‘z xotiralarni bir qator qilib jamlagan xotiralar tarzida yozilgani uchun bo‘lsa kerak kitobga na nom, na mavzu, na bob qo‘yilgan.

Ayrim maqolalar tarzida Jadidchilik va “Yosh xivaliklar” harakati haqida Professor M.Matniyazov taxriri ostida “Xorazm” nashriyotida 1997-yilda chop etilgan. “Xorazm tarixining” II-jildiga hamda Professor M.Matniyazov muallifligida 2004-yilda UrDU nashriyotida chop etilgan “Xorazm tarixi” kitoblariga kiritilgan.

Mustaqillik yillarida jadidchilik bo'yicha juda ko'plab tadqiqotlar olib borildi. Tarixchi, faylasuf, adabiyotshunos tadqiqotchilar jadidchilik harakati vauning namoyondalari faoliyati haqida ko'plab kitoblar, monografiyalar va ilmiy ishlar yaratdilar. Bularning qatoriga Ozod Sharofiddinov, Begali Qosimov⁹, Naim Karimov, Dilorom Alimova va boshqalar nomini keltirib o'tish zarur.

Yosh xivaliklar tarixi bo'yicha ko'plab ilmiy maqolalar va kitoblar chiqarilmoqda. Bular qatoriga Otamurod Qo'shjonov, Nematjon Polvonov¹⁰, J.Yo'ldoshev, S.Xasanov¹¹, Matyoqub Matniyazov, Abdulla Sotliqov¹², Umid Bekmuhammad¹³ va boshqalar ish olib bormoqdalar.

Bitiruv malakaviy ishining davriy chegarasi: Turkistonda Jadidchilik harakati XX asrning boshlarida aniq tus ola boshladi. 1905 – 1907 – yillardagi rus burjua demokratik revolyutsiyasi davrida mahalliy burjuaziya manfaatlarini ifodalovchi g'oyaviy oqim sifatida faollashdi. Jadidlarning ko'zga ko'ringan ziyolilari 1937 – 1939 – yillarda qamoqqa olingan, surgin qilingan va qatog'on qilingan. Aynan shu g'oya Bitiruv malakaviy ishining davriy chegarasiga asos qilib olindi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi va vazifalari: Ushbu masala yuzasidan mavjud malumotlarga, Prezident I.A.Karimov asarlarga tayanib mustaqillik g'oyalari nuqtai nazaridan mavzuni qayta tadqiq qilish, tarixiy xaqiqatni yuzaga chiqarishdan iborat.

Maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagilar vazifa qilib olindi.

- Jadidchilikning vujudga kelishi va mashhur namoyondalari o'rganish.
- Jadidlarning maqsad va vazifalarni o'rgannish.
- Xivada yosh xivaliklar harakatini vujudga kelishi va maqsad va vazifalarni tadqiq qilish.

⁹ Begali Qosimov "Milliy Uyg'onish" Toshkent. "Ma'naviyat" 2002-yil.

Бегали Косимов.. "Исмоилбей Гаспрали". "Ўзбегим". – Т.: 1992.

¹⁰Отамурод Кушхонов, Нейматжон Полвонов. "Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар" Тошкент. Abu Matbuot-Konsalt. МСНЖ.2007-йил..

¹¹Ж.Йолдошев, С.Хасанов."Жадид тарихшунослиги асослари"."Халқ талими" журналида. Тошкент. 1992йил. 11-12-сонлар.

¹² Матёқуб Матниёзов, Абдулла Сотликов. "Жахон тарихи ва маданиятида Хоразм". Урганч."Хоразм".1999-йил.

¹³ Умид Бекмухаммад. "Хоразм тарихидан саҳифалар".1-китоб.Тошкент. "Янги аср авлоди".2009-йил.

- 1917-yil Rossiyada ro'y bergan inqiloblarni Xiva xonligi siyosiy hayotiga tasirini tafsilotlarni tadqiq qilish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Ishning yangiligi shundan iboratki Jadidchilik va Yosh xivaliklar harakati bir biri bilan uzviy bog'liq ekanini, maqsadlari deyarli bir ekanligini tadqiqot darajasida ko'rsatib berishdan iborat. Jadidchilik va Yosh xivaliklar tarixi haqida mujassamlashtirilgan ilmiy asar yo'q. Biz ikkita oqimning Jadidchilik va Yosh xivaliklar harakatining bir – biri bilan uzviy bog'liqligi, maqsadlarining yaqinligi o'xshashliklari yahlit holda bayon qilingan. Bazi bir tarixchilar Jadidchilik va Yosh xivaliklarning aniq bir dasturi bo'lmagan deb davvo qiladilar bu fikr noto'g'ri. Ana shu qarashlarni noto'g'ri ekanligini isbotlashdan iborat. Yangiligi shundan iboratki Jadidchilik va Yosh xivaliklar harakatini demokratik harakat deyish mumkin. Mavjud manbalar asosida, Prezidentimiz asarlari asosida hozirgi zamon nuqtai nazaridan yoritib berishdan iborat.

Tadqiqotning ob'ekti va predmeti: Jadidchilik va Yosh xivaliklar tarixi bitiruv malakaviy ishining predmetini tashkil etsa, mavzuni o'rganishga xizmat qiluvchi yozma manbalar, tadqiqotchilarning asarlari obektini tashkil qiladi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy va amaliy ahamiyati: Jadidchilik va Yosh xivaliklar harakati xalqni va millatni birdan bir bo'lishga chorlagan mafkura hisoblanadi. Ularning maqsadlari bir xil ekanligi, ularni yaqinligi xalqni mustaqil qilish uchun imkon yaratib berdi. Shuning uchun bu mavzuning ilmiy ahamiyati nihoyatda balanddir. Tadqiqotning natijalaridan tarix va mahsus tarix fanlari mutaxassislari keng foydalanishlari mumkin. Tadqiqot materiallaridan Oliy o'quv yurtlari, o'rta maxsus bilim yurtlari talabalari uchun yaratiladigan darsliklar, o'quv qo'llanmalari, maxsus kurslar uchun, shuningdek, ma'ruzalar o'qish va amaliy mashg'ulotlarda keng foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy asosi: Mavzuni o'rganish jarayonida unga haqqoniy, ilmiy tahlilga asoslangan qarash, xolislik, tarixiylik tamoyili, bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda yondashishga harakat qilindi.

Masalani yoritishda manbashunos, tarixchi olimlarning tarixiy - ilmiy xulosalari va I. A. Karimovning asarlarida, nutqlarida ilgari surilgan gʻoyalar va fikrlari nazariy - uslubiy asos bo'lib xizmat qildi.

Bitiruv malakaviy ishining manbaviy asoslari. Jadidchilik va Yosh xivaliklar harakati paydo bo'lishi va ularning maqsad va vazifalari tarixiy taraqqiyoti, taqdiri masalalarini o'rganishda asosiy manba yozma yodgorliklar va tarixiy ilmiy asarlar, malumotlardir. Bu masalani tadqiq etishda mahalliy va rus manbalarning o'zini beqiyosdir. Ular Jadidlarning, Yosh xivaliklarning maqsad va vazifalari, namoyondalari, ularning demokratik ruhdagi olib borgan qarashlari haqida juda ko'plab malumotlarni o'zida jamlagan.

Ishimizga manba sifatida Jadidchilik va Yosh xivaliklar harakati tarixini yoritish uchun olib borilgan tadqiqotlarning natijalari tarixiy talqin qilish orqali jalb etildi. Shu bilan birga Jadidchilik va Yosh xivaliklar harakatining oqimlari va ularning maqsad va vazifalari, demokratik ruxda olib borilgan siyosiy gʻoyalarini o'rganish manba sifatida tahlil qilindi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi: Mazkur bitiruv malakaviy ishi, tarkibiy jihatdan kirish, ikki bob, beshta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan.

I BOB. Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishi.

1.1. Jadidchilikni paydo bo'lishi va uning mashhur namoyondalari.

Jadidchilik harakatining vujudga kelishi, uning ijtimoiy-siyosiy mohiyati to'g'risida to'xtalib o'tsak. Jadidchilik ma'rifatparvarlikdan qudratli siyosiy harakatga qadar bo'lgan murakkab rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Jumladan, XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy hayot, chor imperiyasi yuritgan mustamlakachilik siyosati, xalqning og'ir iqtisodiy ahvoli, jahonning taraqqiy etgan mamlakatlaridan iqtisodiy jihatdan ortda qolishi, madaniy qoloqlik, ijtimoiy ongdagi turg'unlik – jadidlarni jahon taraqqiyoti tajribasidan foydalanib, tezlikda bu holatdan chiqish yo'llarini izlab topishga chorladi¹⁴.

Jadidchilik Turkistonda XIX asrning oxirlarida maydonga kelgan, XX asr boshlarida shakllanib qisqa muddatda o'zining xaddi alosiga ko'tarilgan, 1917-yilgi bolsheviklar to'ntarishidan keyin ham sotsialistik diktatura o'rnatilgunga qadar o'z mavqe va yo'nalishini saqlab qola olgan ijtimoiy xarakatdir. U ijtimoiy turmushning barcha jabhalarni qamrab olgan edi. Mubolag'asiz aytish mumkinki, mazkur davrda yuzaga chiqqan na siyosiy, na madaniy biror xodisa y'oqki, uning e'tibor va tasir doirasidan chetda qolgan bo'lsin.

Jadidchilik g'oyalarga erta bahorning shiddatli shamollari singari po'panak bosib, biljirab ketgan o'rta asrchilik turmushini eng pastki qatlamlarigacha ochib tashladi. Momaguldirak bo'lib, Millat va Vatanning hayot-mamot masalasi kun tartibga qo'yilgani xaqida bong urdi. Chaqmoqdek chaqnab, uning bag'ridagi jarohatlarni yoritdi. Obirahmat bo'lib, ona Turkiston ko'ksidagi maorif, matbuot, teatr nixollarga hayot baxsh etdi. Bu go'yalarning asosida milliy uyg'onish, milliy mustaqillik uchun kurash milliy g'oya yotar edi¹⁵.

¹⁴<http://www.edebi.net/index.php/kardes-edebiyatlar/oezbek-edebiyat/20-21-as-r/601-normurodova-g-b-turkistonda-jadidchilik-harakati>

¹⁵ Begali Qosimov "Milliy Uyg'onish" Toshkent. "Manaviyat" 2002-yil. 4-bet.

Prezident Islom Karimov milliy g'oyaga shunday tarif beradi; “Milliy g'oya deganda, ajdodlardan avlodlarga o'tib, asrlar davomida e'zozlab kelinayotgan, shu yurtida yashayotgan har bir inson va butun xalqning qalbida chuqur ildiz otib, uning ma'naviy ehtiyoji va hayot talabiga aylanib ketgan, ta'bir joiz bo'lsa, har qaysi millatning eng ezgu orzu-intilish va umid-maqсадlarini o'zimizga tasavvur qiladigan bo'lsak, o'ylaymanki, bunday keng ma'noli tushunchaning mazmun-mohiyatini ifoda qilgan bo'lamiz”¹⁶.

«Jadid» so'zi arabcha “yangi usul” degan ma'noni anglatadi. Jadidchilik harakati Turkistonda XIX asrning oxirida quruq madaniy-ma'rifiy harakatning, ya'ni eski maktablarning qiyin o'qitish tizimiga nisbatan yengil tovuch usuliga asoslangan yangi uslub (metod) asosida o'qitishga o'tishdangina iborat emasdi, ayni chog'da turk-islom huquqiy munosabatlarining millatga o'rgatilishi, milliy-ma'rifiy, taraqqiyot va milliy istiqloл muammolarini ham o'z ichiga olgan edi. Bu harakatning vujudga kelishida O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlarida keng quloch yoyib rivojlangan turli oqimlar va Turkiyadagi «Ittihodiy va taraqqiy», «Yosh turklar» harakatining ta'siri katta bo'ldi¹⁷.

Jadidchilik harakati va jadidlar tarixini, asosan ikki davrga bo'lish mumkin: 1) XIX asrning 90-yillaridan – 1917-fevralgacha; 2) 1917-yil fevralidan – 1929-yilgacha. Birinchi davrda jadidchilik harakati uch bosqichga bo'linadi: 1) Jadidchilikning paydo bo'lishi va muntazam uyushgan harakat shakliga ega bo'lishi (XIX asrning 90-yillari – 1905-yil) 2) Jadidchilik harakatining nisbatan tez va qarshiliksiz rivojlanishi (1905-1909 -yillar). 3) Jadidchilikni chorizm tomonidan ozodlik, demokratik va inqilobiy harakatlarga qarshi kurashni kuchaytirgan davrdagi rivojlanishi (1909-1916-yillar). Ikkinchi davr ham voqealar rivojlanishiga qarab uch bosqichga bo'linadi: 1)1917-yil fevral-oktabr; 2)1917-yil noyabr 1924-yil. 3)1925-1929-yillar¹⁸.

¹⁶ Karimov.I.A. “Юксак маънавият-енгилмас куч”.Т.: “Маънавият”. 2008-йил..52-бет.

¹⁷Rustambek Shamsutdinov, Shodi Karimov ,O'ktamjon Ubaydullayev .”Vatan tarixi” 2-kitob. Toshkent. “Sharq”.2010-yil.272-bet.

¹⁸ P.X.Муртазаева.“Ўзбекистон тарихи”. Тошкент. “Янги аср авлоди”. 2003-йил. .350-бет.

Jadidchilik harakatining vujudga kelishini Ismoilbek Gaspirinskiy nomi bilan bogʻlanishi xususida albatta toʻhtalmoq darkor. Darxaqiqat, Rossiya musulmonlari dunyosidagi bu ijtimoiy manaviy harakatda Ismoilbek Gaspirinskiy(1852-1914)-ning xizmati benihoyadir. U Rossiya musulmonlari hayotida yangi hodisa boʻlgan “usuli jadid”ga asos soldi.”Tarjimon” gazetasini chop etish bilan turkiy tildagi matbuotchilikni boshlab berdi. “Usuli jadid”ning dovrugʻi tez orada Rossiyaning musulmon oʻlkalariga: Turkistonga, Xiva va Buxoro xonliklarga keng yoyilgan edi¹⁹. Ismoilbey Rossiyaning bir qancha markaziy shaharlari, Istambul, Vena, Myunxen, Shtutgardtda taʼlim tarbiya oladi, Fransiyaning Sorbonna universitetida oʻqiydi. Shubhasiz, taraqqiyot bobida nafaqat musulmon sharqidan, hatto Rossiyadan ham ancha ilgarilab ketgan Yevropa Ismoilbeyning dunyoqarashini oʻzgartirishga ijobiy taʼsir koʻrsatmay qolmasdi.

Ismoilbeyning asosiy gʻoyalari uning 1881 yilda chop etilgan «Rossiya musulmonlari» kitobida oʻz ifodasini topdi. Ularning mohiyatini quyidagilar tashkil qiladi:

- Rossiya maʼmuriyati musulmonlarni atayin taraqqiyotdan, ilm-maʼrifatdan uzoqda tutayotganligini, musulmonlarning tili, dini, turmush tarzini buzayotganligini tan olish;

- musulmonlarning hayotini rus tili emas, balki anglash oson, eng taʼsirchan va tushunarli boʻlgan ona tilida oʻzlashtiriladigan ilm-fangina oʻzgartirishi mumkinligini, musulmonlar taʼlim tizimi zamon talabidan orqada qolganligini taʼkidlash;

- musulmonlarning Rossiyani, uning hayotini va qonunlarini oʻrganishlari, tor dunyoqarashlarini yangilashlari, hayotni jonlantiruvchi bilimga ega boʻlishlari uchun imkon yaratish lozimligini uqtirish;

- Rossiya tarkibida yashamoqchi boʻlgan turkiy xalqlarning amaldagi teng huquqliligini taʼminlash uchun ularning turmush tarzi, urf-odatlari, maʼnaviy-axloqiy qadriyatlarini saqlab qolish kerakligini, aks holda, u oʻzligini yoʻqotishi mumkinligini taʼkidlash;

¹⁹М.Матниёзов. ”Хоразм тарихи”. I жилд. Урганч. ”Хоразм” 1996-йил. 320-бет

– taraqqiyotga, madaniyatga erishish, adolat oʻrnatish uchun jahondagi tartibni buzishga, sotsialistik inqilobga hojat yoʻqligini, aks holda, katta qiyinchiliklarga duch kelinishini anglash²⁰.

Ismoilbek fikricha, axvolni tuzatmoq uchun 3 narsa kerak: 1. Milliy fikr. 2. Milliy til. 3. Milliy maorif. Milliy fikr birinchi navbatda, millat birligi fikridir. Til yagona adabiy til masalasidir. Milliy maorif ona tilidagi taʼlim tarbiyani yoʻlga qoʻyishdir. Fikr va Tilni matbuot tarbiya qiladi. Matbuot xodimlarni yetkazuvchi esa maorifdir. Demak, ishni maorifda boshlash kerak. “Tarjimon” xam, “Usuli jadid” xam shu maqsadda dunyoga kelgan edi²¹.

U chiqargan “Tarjimon” gazetasining 25 yillik toʻyida Xitoyning “Tarancha”sidan tabrik telegrammasi kelgan. 1911-yilda uning “Xoʻjai siyobon”(“Bolalar muallimi”) kitobi Bombeyda bosildi. Muallifni Hindistonga taklif qildilar. Bir yil oldin esa Fransiyaning eng eʼtiborli jurnallardan “Revyu dyu monde musulman” uning millat oldidagi buyuk xizmati uchun nomzodini” Tinchlik borasidagi Xalqaro Nobel Mukofoti”ga tavsiya qilgan va buni xorijiy mamlakatlardagi juda koʻp matbuot oʻrganlari qoʻllab quvvatlab chiqqan edi²². U arab, fors va rus tillarni oʻrganish bilan bir qatorda tibbiyot, xikmat, kimyo, nabotat, nujum kabi 17 fanni oʻrganish lozimligini koʻrsatdi. Oʻz maqsadini amalga oshirish uchun u 1884-yilda Qrimning Bogʻchasaroy shahrida yangi uslubdagi birinchi jadid maktabini ochib, uning oʻzi darsliklar yozdi. Ismoilbek Gaspirinskiy jadidchilik gʻoyalarni Turkiston oʻlkasi musulmonlari oʻrtasida xam keng yoyishga kirishdi va 1893-yili shu maqsadda Turkiston va Buxoro amirligida boʻldi. Turkiston hukumati va Buxoro amiri uning yangi uslubdagi jadid maktablari ochish taklifini rad qilgan boʻlsada umidsizlikka tushgani yoʻq. U oʻzining Turkistondagi xam fikrlari Munavvar Qori Abdurashid oʻgʻli, Abdulla Avloniy, Bexbudiy va boshqa marifatparvar kishilar yordamida Turkiston oʻlkasida yangi uslubdagi jadid maktablarni koʻp mashaqqatlar bilan amalga

²⁰Бегали Косимов.. “Исmoilбей Гаспpали”. “Ўзбегим”. – Т.: 1992.. 141–165-бет.

²¹ Begali Qosimov”Milliy Uygʻonish” Toshkent. “Manaviyat” 2002-yil. 190-bet

²² Oʻsha kitob. 162-bet.

oshirdilar. 1903-yilga kelib Turkiston o`lkasida ularning tashabbusi bilan 102 ta boshlang`ich va 2 ta o`rta jadid maktablari o`z faoliyatini boshlab yubordi²³.

Turkistonda jadidchilik namoyondalarga keladigan bo`lsak Mahmudxo`ja Behbudiy turkiston jadidchilik harakatining boniysidir. Uning hayoti va ijodiy faoliyati haqida 20-yillarda mahalliy matbuotda Sadridin Ayniy, Xoji Muin ibn Shukrullo, Laziz Azizzoda kabi zamondoshlari tomondan bir qator maqola, xotiralar elon qilingan. Keyingi yillarda ,xususan, mustaqillikka erishgandan so`ng jadidlar faoliyatini o`rganishga bo`lgan qiziqish bilan Behbudiy xam qayta kashf etila boshlandi. Behbudiy tarjimai xolini yoritishda Xoji Muinning 1922-23-yillarda o`zi muxarrirlik qilgan “Mehnatkashlar tovushi” (1922), “Zarafshon”(1923) gazetalarda chop etgan maqolalari muhim ahamyatga ega. Behbudiy xaqida 70-yillardan bugungi kungacha elon qilinib kelayotgan Solix Qosimov, Ahmad Aliyev, Naim Karimov, Sirojiddin Ahmedov, Sherali Turdiyev va bugungi yosh tadqiqotchilar Xalim sayyid, Normurod Avazov, Zebo Axrarova ishlarning barjasida mana shu Xoji Muin malumotlarga asos qilib olinadi²⁴. Uning keltirishicha²⁵, Mahmudxoja Behbudiy 1875-yilning 19-yanvarda(xijriy 1291,10-zulxijja)²⁶ samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog`ida ruhoniylar oilasida dunyoga kelgan.Otasi Behbudxo`ja Soliqxo`ja o`g`li Turkistonlik, Axmad Yassaviyning avlodlaridan, ona tomondan bobosi Niyozxo`ja Urganchlik bo`lib, amir Shohmurod zamonida (1780-1785) Samarqandga kelib qolgan²⁷.

U tarixda «Turkiston jadidlarining otasi» deb nom olgan. Mahmudxo`ja Behbudiy istiqloqlol uchun kurashning oldingi saflarida borganlardan edi. Fayzulla Xo`jayev Behbudiy haqida bunday degandi:«Siyosiy, ijtimoiy faoliyati, bilimining kengligi jihatidan o`sha zamon Turkistonidagi jadidlar orasida unga teng kela

²³ Ж.Йолдошев, С.Хасанов. ”Жадид тарихшунослиги асослари”. ”Халқ талими” журналіда. Тошкент. 1992-йил. 11-12-сонлар. 27-бет..

²⁴ Aslida xam Xoji Muin (1883-1942) Behbudiyni yaqindan bilgan, uning e`tiboriga sazovor bo`lgan hamkasabasi, shogirdi edi. 1914-yilda Behbudiy haj safarga ketar ekan, “Oyna” jurnalining muvaqqat muharriri qilib Xoji Muinni qoldirganligi malum.

(Qarang: Mahmudxo`ja Behbudiy, Qasdi safar. Tanlangan asarlar, 2-nashr.T.: “Manaviyat” 1999-yil, 55-bet.)

²⁵ Qarang: Xoji Muin.Mahmudxo`ja Behbudiy, “Zarafshon” gazetasi,1923-yil 25-mart.

²⁶ Ayrim tadqiqotlarda bu sana 1874-yil mart(“Sovet o`zbekistoni sanati” J.,1989-yil, 2-son) deb bizningcha, yangilish ko`rsatiladi. 1291-yilning boshlanishi (1-muxarram) 1874-yilning 18-fevral chorshanba kuniga to`g`ri keladi.(Qarang: таблица согласования Х.К.БарановуАрабско-русский словарь. М., 1977,940-942-бетлар) Zulhxijja so`ngi oydir. Uning 10-si 355-kun bo`lib, jamlanganda 1875-yil 19-yanvar kelib chiqadi.

²⁷ B.Qosimov”Milliy Uyg`onish” Toshkent. “Ma`naviyat” 2002-yil. 218-bet.

oladigani bo'lmasa kerak». Behbudiy Gaspirinskiy yo'lga qo'ygan «usuli jadid» maktablarini Turkistonda qaror toptirishda, ularni darslik va qo'llanmalar bilan ta'minlashda jonbozlik ko'rsatadi. Yangi tipdagi maktablarning milliy-madaniy taraqqiyotimizda muhim omil bo'la olishi mumkinligi haqida o'nlab maqolalar yozadi. «Muntaxabi jug'rofiyai umumiy» («Qisqa umumiy geografiya»), «Kitobat-ul atfol» («Bolalar maktubi»), «Muxtasari tarixi islom» («Islomning qisqacha tarixi»), «Amaliyoti islom», «Madhali jug'rofiyai umroniy» («Aholi geografiyasiga kirish»), «Muxtasari jug'rofiyai Rusiy» («Rusiyaning qisqacha geografiyasi») kabi darsliklar yaratadi. Nashriyot tashkil qilib, darsliklar va qo'llanmalar, xaritalar bosib chiqargani ma'lum. Bular ilk o'zbek maktablari uchun tuzilgan darslik va qo'llanmalar sifatida emas, til-yozuv madaniyatimiz taraqqiyoti nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga ega.

Behbudiy 1913-yilda «Samarqand» gazetasi va «Oyna» jurnalini chiqaradi. Gazeta dastlab 2, so'ng 4 betlik bo'lib, haftada 2 marta chiqqani va moddiy tanglik tufayli 45-sonidan keyin to'xtagani ma'lum. «Oyna» o'lkada o'zbek tilida chiqqan birinchi jurnal edi. U xalq orasida ancha mashhur bo'lgan. Boshida haftada bir, 1914-yildan esa har o'n besh kunda chiqqan. Ziyo Said «O'zbek vaqtli matbuoti tarixiga doir materiallar ida» bu jurnalning 2 yil davomida 68 soni (jami 1720 bet) dunyo yuzini ko'rib, 1915-yil 15-iyunda to'xtaganini ma'lum qiladi²⁸.

Marifat uchun birgina maktab kifoya qilmasdi. Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, Millat va Vatanning axvolidan, kundalik axvolidan ogoh bo'lmoq kerak edi. Binobarin, millat uchun shunday oyna kerak ediki, unda o'z qabohatini ham, malohatini ham ko'ra olsun. Mana shu ehtiyoj va zarurat Behbudiyni teatr va matbuot sari boshladi. «Padarkush» shu tariqa maydonga keldi. 1911-yilda yozilgan «Padarkush» dramasi 1913-yildagina bosilib chiqiladi. «Padarkush» o'zbek dramachiligini hamma yakdil etirof etgan birinchi namunasidir. «Padarkush» dastlab Samarqandda 1914-yilning 15-yanvarda saxnaga qo'yildi. Xalq nixoyat ko'p kelib, belat yetmagani va joyni yo'qligi uchun uch-

²⁸Rustambek Shamsutdinov, Shodi Karimov, O'ktamjon Ubaydullayev. "Vatan tarixi" 2-kitob. Toshkent. "Sharq". 2010-yil. 291-bet.

to'rt yuz kishi qaytib ketdi"²⁹, deb yozadi mahalliy matbuot. Yana o'sha yerda o'qiymiz."Belatlar bir-ikki kun avval yoshlarning g'ayrati ila sotilib tamom bo'lib edi. Bazi kishilar belatlarini ikki bahoga foidasi ilan boshqaga sotdilar. Soat yettidan minglab xalq ibratxonaga hujum qilgan. Ammo belat yo'q. Uch so'm³⁰ berib, tikka turmoqg'a xam rozi, yana yer yo'q... ". Drama Toshkentda 1914-yilning 27-fevralda qo'yildi. Avloniyning "Turon" truppasi Kolizey(xozirgi Savdo birjasi binosi)da o'z faoliyatini mana shu "Padarkush" bilan boshlagan edi. Spektakl oldidan mashhur Munavvar Qori teatrning jamiyat hayotidagi ro'li va o'rni xaqida nutq so'zlaydi. Boy ro'lini Abdulla Avloniyning o'zi ijro etadi. Mahalliy matbuot bu kunni "Tarixiy kun"³¹, deb yozadi. 1916-yilda Toshkentga kelib Kolizeyda "Turon"ning qator spektakllarini ko'rgan A.N.Samoylovich yozadi:"Turkistonda yangi adabiyot maydonga keldi. Bu men uchun kutilgan xol edi...Yangi adabiyotning markazi-Samarqand...Yosh qalamkashlarning bosh islohotchisi Samarqandlik mufti Mahmudxo'ja Behbudiyydir"³².

Jadidchilik harakatining yirik vakillaridan bo'lgan Munavvar Qori Abdurashidxonov (1878–1931)³³, Ismoil Gaspirinskiyning o'qish va o'qitish, madrasa va maktab islohotiga oid fikrlarining Turkistondagi otashin targ'ibotchilaridan biri edi. Bunda Bog'chasaroyda nashr etilgan «Tarjimon», Tataristonda chop etilgan «Vaqt», «Yulduz», Istanbulda bosilgan «Siroti mustaqim» («To'g'ri yo'l»), kabi matbuot nusxalarining Turkistonga turli yo'llar bilan tarqalishi katta o'rin egalladi. Munavvar Qori 1901– 1904-yillarda Qrimlik do'sti Rasim Kishod yordamida Toshkentda «usuli savtiya» maktabini ochadi. 1910-yilga kelganda bunday maktablar 10 tagacha yetadi. Chor ayg'oqchisi 1912-yilda bunday yozgan edi: «Toshkent shahrida yashab turgan Munavvar Qorining hozirgi paytda 80 o'quvchisi bor.

²⁹ "Oyna" jurnali.,1913-yil. 5-son

³⁰ Mukoyasi uchun:1914-yilda 2 so'mga o'rtacha bir qo'y bergan.

³¹Qarang:"Turkiston viloyating gazetasi". 1914-yil.18-son. 2-mart.

³²A.N.Самойловичю Драматическая литература сартовбб Вестник Импыю об-ва вост.,»№-5,Петроград,1917 4-бет.

³³Qarang: Мунаввар Қори Абдурашидхонов. Хотираларимдан. (жадидчилик тарихидан лавхалар). Нашрга тайёрловчи ва изохлар муаллифи С.Холбоев. «Шарк», Т., 2001.; Холбоев С. Мунаввар Қори. «Фан ва турмуш»,Т., 1991, 4-сон; Ўша муаллиф. Ойболта остидаги сўз. «Турон тарихи». Т., 1992;Ўша муаллиф. Мунаввар Қори Абдурашидхонов. Ўрта Осиёдаги педогогик фикрлар тадқиқотидан лавхалар. Т., «Фан», 1996; Сирождидин Ахмад. Мунаввар Қори. «Шарк юлдузи», 1992, 5-сон.

Ularni tatar uslubida o'qitadi. Bu maktabning o'quvchilari sart tilida sahna asarlari qo'yadilar».

«Наука и просвещение» jurnalining ma'lumotlariga qaraganda, Munavvar Qori Abdurashidxonovning «Namuna» maktabida bir necha yuz bola o'qigan. Bu maktabda tayyorgarligi anchagina jiddiy bo'lgan iste'dodli yoshlar o'qituvchilik qilishgan. Ularning qo'lida ta'lim olgan yoshlar orasidan keyinroq Hamza, Qayum Ramazon, Oybek, Mannon Uyg'ur kabi iste'dodli adib va san'atkorlar yetishib chiqishdi.

Ulug' pedagog olib borayotgan ishlar zolim chor hukumati vakillarini ancha bezovta qilib qo'ydi. Bu haqda jadidchi Mo'minjon Muhammadjonovning «Turmush urinishlari» asarida shunday yozilgan: Olmaota (Verniy)da rus muallimlarining katta yig'ini bo'ldi, shul yig'inda «tatarlar qozoqlar bilan birga sart bolalari o'qitilmasun! O'qumishli tatarlarga Turkiston o'lkasida turish uchun yo'l qo'yilmaslik kerak! Chunki ular sart, qozoqlarga bilim tarqatib, ko'zlarini va fikrlarini ochadirlar. So'ngra bizga yemak uchun Turkistondan qolmaydir. 2-yangi tartib bilan o'qituvchi muallimlar, proqrammalari, o'qitadurgon kitoblari kimning asarlari ekanligini «inspektor»larga yozib ko'rsatmaguncha bola yig'ib o'qita olmaydurlar», deb qaror berdilar. Chor amaldorlari maktablarning dasturlari bilan muntazam tanishib borganlar va imtihonlarda ishtirok etganlar».

Sirojiddin Ahmadning «Munavvar Qori»³⁴, maqolasida qayd qilinganidek Munavvar Qori pedagogik va badiiy asarlar ham yozgan. U Turkiston o'lkasida birinchilar qatorida «Adibi avval», «Adibi soniy», «Yer yuzi» («Jug'rofiya»), «Havoyiji diniya» kitoblarini (1907-yilda) nashr ettirgan. 1914-yilda Salim Ismoil Ulviyaning Qur'on qiroati bo'yicha saboq beruvchi «Tajvid»ini o'zbekchaga tarjima qilib, Orenburgda nashr ettirgan. «Sadoi Turkiston» jaridasida bosilgan Kamiy, Xislat, So'fizoda, Hamza kabi shoirlarning she'rlarini to'plab, «Sabzazor» nomi bilan chop ettirgani ma'lum.

Ulug' mutafakkir bu ishlar bilan ham cheklanmadi. O'ziga o'xshash ochiq fikrli yoshlar – Ubaydulla Xo'jayev, AbdullaAvloniy, Toshpo'lat Norbo'tabekov,

³⁴«Шарк юлдузи», 1992 йил, 5-сон.

Karim Norbekov va boshqalar bilan hamkorlikda 1909-yilda toshkentlik bir boyning raisligida «Jamiyati xayriya» tashkil etadi. Biroq, bu jamiyat iqtisodiy jihatdan bir necha agʻniyolarning igʻvo va yordamiga suyangani uchun erkin ish olib bora ololmaydi.

Munavvar Qori Abdurashidxonov milliy matbuotning asoschilaridandir. U 1906-yil sentabrda «Xurshid» («Quyosh») jaridasini nashr etdi va unga muharrirlik qiladi. «Najot» (1917-yil), «Kengash» (1917-yil), «Hurriyat» (1917-yil), «Osiyo», «Haqiqat», «Turon» kabi matbuot nashrlarida muharrirlik qiladi.

Munavvar Qori matbuotga elni, millatni, gʻaflat uyqusidan uygʻotuvchi, buyuk kuch, madaniyat va maʼrifatga chorlovchi buyuk vosita, haqiqat jarchisi deb qaradi. U «Sadoiy Turkiston» (1915–1918) jaridasida maktablarni takomillashtirish, imtihonlar oʻtkazish haqida yozar ekan: «Butun dunyodagi madaniy millatlarning qaygʻu va hasratlariga ishtirok etmagan va bu shodlik masaratlaridan bahra olmagan bir qavm va bir millat bor esa, ul ham Turkiston turklaridirmiz», deydi.

Munavvar Qori 1913-yildan oʻz faoliyatini boshlagan «Turon truppasining tashkilotchilaridan boʻldi. 1914-yil 27-fevralda Toshkentdagi «Kolizey» teatri binosida oʻzbek milliy teatrining birinchi ochilish marosimi boʻldi. Spektaklni birinchi pardasini ochish Munavvar Qori Abdurashidxonovga topshirildi. Mazkur tanatanada u bunday degan edi: «Turkiston tilida hanuz bir teatr oʻynalmagʻonligi barchangizga maʼlumdir. Shul sababli baʼzi kishilarimiz teatrga, ehtimolki oʻyinbozlik yoki masxarabozlik koʻzlari ila boqurlar. Holbuki, teatrning asl maʼnosi «Ibratxona» yoki «Ulugʻlar maktabi» degan soʻzdir. Teatr sahnasi har tarafi oynaband bir uyga oʻxshaydurki, unga har kim kirsam oʻzining husn va qalbini, ayb va nuqsonini koʻrib ibrat olur».

Munavvar Qori Turkiston oʻlkasining qoloqligi sabablarini izlar ekan, «Mana, ketma ket yetgan bunday savollarga javob bermak uchun nodonliq va olamdan xabarsizlik demakdin boshqa chora yoʻqdir. Bu nodonliq va dunyodan xabarsizlik balosidan qutulmoq uchun avval oramizda hukm surgan buzuq odatlarning buzuqligini bilmak va oʻrganmak kerakdir», deydi u. U teatr sanʼatiga

ana shu «buzuq odatlarning buzuqligini bilmak» va tuzatmak muassasasi, «tabibi hoziq» deb qaradi.

Munavvar Qori Abdurashidxonov insonning ma'rifatli bo'lib, ko'zi ochilmaguncha vijdoni uyg'onmasligini, vijdoni uyg'onmasa na o'zining, na xalqining erkini muhofaza qila olishini, bu – imonsizlik ekanini mutafakkirona noziklik bilan o'z asarlarida ko'rsatib berdi. Bu ulug'vor yo'lda u mardonavor va qahramonlarcha kurashdi.

Abdulla Avloniy (1878–1934)³⁵, o'zbek xalqining atoqli shoiri, muallimi va mutafakkiri, jadidchilarning yetuk vakillaridan biridir. U o'z tarjimai holidi: «Turli gazeta va jurnallar o'qishga tutindim. 1904- yilda jadidlar to'ldasiga kirdim. Mirobodda «usuli jadid» maktabi ochib o'qituvchilik qila boshladim»,³⁶ deydi.

Abdulla Avloniy o'zi ochgan maktab uchun to'rt qismdan iborat «Birinci muallim», «Ikkinchi muallim», «Maktab gulistoni», «Turkiy guliston yoxud axloq» kabi darsliklar va o'qish kitobini yaratdi. Maktab-maorif ishlariga ko'mak ko'rsatuvchi «Jamiyati xayriya» tashkil etdi. «Nashriyot» shirkati tuzib, Xadrada «Maktab kutubxonasi» kitob do'konini ochadi.

U 1913-yilda tashkil etilgan professional «Turon» nomli teatri to'garagining tashkilotchilaridandir. Bu to'garak keyinchalik Hamza tomonidan tashkil etilgan truppa bilan qo'shilib hozirgi drama teatri Hamza nomidagi hozirgi Milliy davlat akademik teatriga asos bo'ldi. Avloniy to'garagidan keyinchalik mashhur inqilobchi va madaniyat arboblari bo'lib tanilgan Nizomiddin Xo'jayev, G'ulom Zafariy, Shokirjon Rahimiy, Shamsiddin Sharofiddinov (Xurshid), Mannon Uyg'ur singari ulug' shaxslar yetishib chiqdilar. Ular jadid yozuvchilar: Mahmudxo'ja Behbudiy, Hamza, Abdulla Qodiriy asarlarini sahnalashtirar va asosiy rollarni o'zlari o'ynar edilar. 1916-yilda Ozarbayjonlik mashhur aktyor Sidqiy Ruhillo Toshkentga kelib «Turon» gruppasi bilan birga «Layli va Majnun» spektaklini sahnalashtiradi. Abdulla Avloniy bu spektaklda Qaysning otasi rolini ijro etadi.

³⁵Qarang: Qosimov B. Abdulla Avloniy. T., 1979; Qosimov B. Izlay-izlay topganim. T., 1983; Abdulla Avloniy. Turkiy guliston e'xud axloq. T., 1992.; Uson millat T., 1993; Qosimov B., Dolimov U. Ma'rifat dargalari. T., 1990. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси... 1-жилд, 73–74-бетлар.

³⁶Абдулла Авлоний. Усон миллат Т., «Шарқ», 1993, 8-бет.

Aynichog‘da Avloniy o‘z teatri uchun «Pinak» (1915), «Advokatlik osonmi?» (1916) kabi sahna asarlari yozib beradi va ularni sahnalashtiradi. Bundan tashqari u tatar va ozarbayjon jadid yozuvchilarining asarlarini o‘zbek tiliga tarjima ham qilgan.

Abdulla Avloniy millat va yurt qayg‘usi bilan, mamlakat istiqboli va ravnaqi ezgu niyati bilan yashadi va u bilan nafas oldi, o‘z asarlarida uni kuylab tarannum etdi. Bu borada Avloniyning quyidagi so‘zlari g‘oyatda ibratlidir va xuddi bugungi kunda bizni o‘ylab aytilgan so‘zlarga o‘xshaydi: «Har bir millatning dunyoda borligin ko‘rsatg‘on oynai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo‘qotmoq millatning ruhini yo‘qotmakdur... Yohu bizga na bo‘ldi? Bobolarimiz yo‘lidan chiqib ketduk! Yaxshi qo‘shningdan olguncha yomon uyingni qidir, demishlar. Bobolarimizga yetishg‘on va yaratgan muqaddas til va adabiyot bizga hech kamlik qilmas. O‘z uyimizni qidirsak vaaxtarsak yo‘qotganlarni ham topamiz. Yo‘qolsa yo‘qolsun, o‘zi boshimga tor edi, deb Yevropa qalpog‘ini kiyub, kulgu bo‘lmak zo‘r ayb va uyotdur»³⁷.

Abdulla Avloniy barcha jaholatliklar, qorong‘uliklar va nodonliklarning, millatning o‘zligini anglamasligining asosida ma‘rifatsizlik yotishini yaxshi ko‘ra oldi va u avlodlarga, farzandlarga, o‘g‘il-qizlarga pandu nasihatlar qilib maktabga borish, o‘qish, o‘rganish, ilm olishga da‘vat etadi.

Xullas, Abdulla Avloniy jadidchilik harakatining yirik vakili sifatida XX asr boshlaridagi milliy uyg‘onishga munosib hissa qo‘shdi³⁸.

Abdurauf Fitrat (1886–1938)³⁹, jadidchilik harakatining yirik namoyandalaridan biridir. U hali 1909–1913-yillarda o‘qishni Istanbulda davom ettirib yurgan kezlarda F.Xo‘jayevning bergan ma‘lumotiga ko‘ra hamyurtlari bilan birgalikda «Buxoro ta‘limi (umumiy) maorif jamiyati»ni tuzgan.

³⁷O‘shaasar.7-bet.

³⁸Rustambek Shamsutdinov, Shodi Karimov, O‘ktamjon Ubaydullayev. "Vatan tarixi" 2-kitob. Toshkent."Sharq". 2010-yil.298-bet.

³⁹Рашидова Д. Жадидларнинг меросида мусика (А.Фитратнинг ижодига оид маълумотлар.) Жадидчилик: ислохот, янгиланиш... 128–145-бетлар.; Файзулла Киличев. Мустакилликнинг фожиали йўли. «Шарқ юлдузи», 1992,№7 ва Хамидулла Болтабоевнинг катор асар ва мақолаларида А.Фитрат фаолияти акс эттирилган. Айниқса унинг каламига мансуб «Фитрат ва жадидчилик. Илмий тадқиқий мақолалар» Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007.) китобининг эълон қилиниши муҳим воқеа бўлди.

Bu jamiyat buxoroliklarning o‘zaro moddiy-ma’naviy uyushmasi vazifasini bajargan. Bu davrda Turkiya «Yosh turklar» inqilobidan mast davrni o‘z boshidan kechirardi. Turkiyadagi bunday inqilobiy muhit albatta yosh Fitratga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. U siyosat maydoniga sho‘ng‘ib ketdi. Bu yerda Fitrat Sharq adabiyoti, san’ati, tarixini chuqur va atroflicha o‘rganadi. Ilg‘or taraqqiyparvar turk adabiyoti vakillari turk adabiyoti orqali esa G‘arb adabiyoti bilan yaqindan tanishadi. G‘arb va Sharq xalqlari madaniyati, adabiyotlari o‘rtasida farqlarni o‘z ko‘zi bilan ko‘radi, uning sabablarini teranroq anglaydi.

Fitrat adabiyotga shoir va adabiyotshunos sifatida kirib keldi. Ko‘p o‘tmay o‘zini dramaturgiya va nasrda ham sinab ko‘rdi. U «Munozara» (dastlabki nomi «Hindistonda bir farangi ila buxorolik bir mudarrisning bir necha masalalar ham usuli jadid xususida qilgan munozarasi») asarini Turkiyaga borishidan oldin, 1905–1907-yillarda yaratgan. «Sayha», «Sayyohi hindi », «Rahbari najot», «Tarixi Islom» asarlarini esa Turkiyada tahsil olgan paytida yozgan va «Munozara» 1908-yilda, «Sayha» 1910-yilda «Sayyohi hindi» 1913-yilda Istanbulda bosilib chiqqan. «Rahbari najot» va «Oila» 1915–1916-yillarda Bokuda nashr qilingan. Bu asarlar o‘sha davrdayoq xalq orasida keng tarqaldi. Boshqa tillarga ham o‘girildi. Masalan, «Munozara» 1909–1914-yillar orasida turk, ozarbayjon tillarida, «Sayyohi hindi» rus tilida chop etilgan. «Rahbari najot»ni esa do‘sti, shoir va noshir Abdulvohid Burhonov Sankt-Peterburgda nashrdan chiqargan. Bulardan tashqari, uning «Mavludi Sharif», «Abo Muslim», «Begijon» asarlari va dastlabki she’rlari «Oyna», «Taraqqiy», «Sadoi Turkiston », «Turon», «Hurriyat», «Buxoroi Sharif» kabi gazeta va jurnallar sahifalarida e’lon qilingan.

Fitrat Buxoro jadidchilarining tashkilotchilaridan biri sifatida xalqni ma’rifat va madaniyatdan bahramand qilish uchun astoydil kurashdi. Lekin bu harakat sharoitga qarab turli yerda turlicha sodir bo‘ldi. Jumladan, 1915–1916-yillarga qadar Buxorolik jadidlar yakdil va yagona jabha bo‘lib, ish olib borgan bo‘lsalar keyinchalik ular ikkiga bo‘linib ketdilar. Jadidlarning bir qismi (Abdulvohid Burhonov boshchiligida) eski tarzda faqat madaniyat tarqatish yo‘lini tutgan bo‘lsa, ularning yana bir boshqa bo‘lagi Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev kabi chet ellarda

o'qib kelgan yoshlar omma o'rtasida ma'rifat va madaniyat tarqatish bilan birga amirga qarshi kurashni ham yoqlab chiqdilar. Bu guruh tarixda «Yosh buxoroliklar» degan nomini oldi. Bunday bo'linishning asosiy sabablari: Birinchidan, Turkiston o'lkasi, shu jumladan Buxoro amirligidagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyatning og'irligi, rus podshosi va amirlikning ikki yoqlama zulmkorlik siyosati, ikkinchidan, bolshevoylarning mahalliy xalq o'rtasida yurgizgan tashviqot va targ'ibotlari ta'siriga ishonuvchanlik va nihoyat, Uchinchidan mahalliy xalq vakillarining siyosiy qorong'ilikda saqlanganligi, ularning g'oyaviy nazariy saviyasining yetarli darajada rivojlanmaganligidir.

Fitrat o'z ona diyorini ozod va hur ko'rishni orzu qiladi. O'z niyatlari, ezgu armonlarini amalga oshirishda ojizlik qilgan Abdurauf Fitrat ulug' bobokalonimiz sohibqiron Amir Temurlar singari millat fidoyilarini qo'msaydi. U «Temur sag'anasi» dramasida o'z qahramoni tilidan Amir Temurga murojaat qiladi: «Xoqonim, ezilib talangan, talanib yiqilgan, yiqilib yaralangan turk elining bir bolasi sendan ko'mak istarga keldi. Bog'lari buzilgan, gullari so'lgan, bulbullari uchirilgan Turonni bir qorovuli senga arz etarga keldi».

Bunday murojaat Fitratning boshqa asarlari mazmuniga ham singib ketgan. Ulardagi asosiy g'oya – ona yurt, Vatanni ulug'lash, xalq, millatning ozodligi va erkinligidir. Zero, ma'rifatga intilgan inson uchun, ayniqsa shoir uchun bir tomondan amir istibdodi, ikkinchi tomondan chor mustamlakasi zulmi ostida ezilgan xalqni, toptalgan yurtni ozod ko'rishdan ham ulug' niyat bo'lishi mumkinmi? Fitrat ana shunday ilg'or g'oya va fikrlar uchun ko'pchilik jadidlar qatorida shakkkoklik, isyonkorlikda ayblandi, chor ma'murlari esa uni mustamlakachilikka qarshi turganlikda aybladilar, kommunistik mafkura hukmron bo'lgan qizil saltanat davrida esa millatchilikda, panturkizm g'oyasi tarafdori, «xalq dushmani» degan uydirma tamg'a bilan aybladilar. Professor H.Yoqubovning hikoya qilishicha Fitratni 1937-yilgacha uning yaqin do'sti

Fayzulla Xo‘jayev o‘z himoyasiga olib kelgan. Qatag‘on yillarida ko‘pchilik qatori Fitrat ham qamoqqa olingan⁴⁰.

1.2.Jadidchilikning maqsad va vazifalari.

Jadidchilik, ma‘rifatchilik millatni ma‘rifatli qilish, ma‘naviyatini yuksaltirish maqsadlarida yuzaga kelgan buyuk tarixiy harakatdir. Jadidlar aholini savodli qilmoqchi bo‘lgan oddiy ma‘rifatchilar emas. Ular mustamlakachilik davrida Turkistonda hukmron bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyatni, xalqning ma‘naviy holati darajasini yaxshi bilganlar, bu jarayonlarning sabablarini chuqur tahlil eta olganlar. Ular Turkistonning mustaqilligini ta‘minlash, mahalliy millatlarni ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma‘naviy taraqqiyot yo‘liga olib chiqish uchun birinchi navbatda xalqning umumiy madaniy-ma‘naviy, ma‘rifiy saviyasini davr talablari va imkoniyatlariga asoslanib rivojlantirish lozimligini anglab yetganlar. Ularning xalq maorifini rivojlantirish, milliy madaniy-ma‘naviy merosni tiklash, Yevropa xalqlarining madaniyati, tajribasini o‘rganishga chaqirish borasidagi faoliyati ham pirovard natijada mustaqillikka erishish maqsadlari bilan bog‘langan. Jadidlar bilimli, madaniyatli, ma‘rifatli, ma‘naviyatli millatgina katta tarixiy vazifalarni hal etishga qodir bo‘la olishi mumkinligini chuqur anglab yetganlar.

Insoniyatning bir jamiyatdan ikkinchi jamiyatga, bir tarixiy davrdan ikkinchi bir tarixiy davrga o‘tishi ma‘rifatparvarlikdan boshlanadi. Zamonaning eng yetuk, ongli, oq-qorani tanigan, fidoiy, elim, yurtim deb yashovchi, uzoqni ko‘zlovchi ma‘naviyatli kishilari ma‘rifatparvarlik bilan shug‘ullanadilar.

Ma‘rifat ma‘naviy qaramlik, qo‘rquv va hadikni bartaraf etadi, insonga beqiyos ilohiy qudrat, mislsiz salohiyat baxsh etadi. Shuning uchun ozodlik uchun kurashchilar mamlakat, millat ozodligini xalqning ma‘rifiy uyg‘oqligida deb biladilar va ma‘rifat uchun kurashadilar. Bizning xalqimiz azal-azaldan ma‘rifatga

⁴⁰Rustambek Shamsutdinov, Shodi Karimov, O‘ktamjon Ubaydullayev. "Vatan tarixi" 2-kitob.Toshkent."Sharq". 2010-yil. 304-bet.

intilib yashagan. Bu o'lkadan dunyo ilmi rivojiga ulkan hissa qo'shgan allomalar yetishib chiqqan. Ular ham dunyoviy, ham diniy ilmlar sohasida dunyo ilmi ahlini hayratga solganlar.

Turkiston ma'rifatchilik maktabi boy o'tmish va ulkan merosga ega. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxon o'g'li, Abdulqodir Shakuriy, Ashurali Zohiriy, Saidrasul Saidaziziy, Ishoqxon Ibrat va Ahmad Donishlar XIX asr oxirlarida faoliyat boshlab, mamlakatni, xalqni milliy zulm va qoloqlikdan xalos etishning yagona yo'li ma'rifatda deb bildilar. Bu fidoiy zotlar mustabid tuzum va jaholatga, ma'naviy qullik va zulm-zo'ravonlikka qarshi bor kuchlari bilan kurash olib bordilar.

Mustabid sovet tuzumi sharoitida jadidchilik harakatiga to'g'ri baho berish va uni munosib taqdirlash imkoniyatiga ega emas edik. Aksincha jadidchilik harakatining vakillari millatchilik g'oyasini targ'ib qiluvchi panturkizm va panislomizm mafkurasi tarafdori deb e'lon qilindi. Ularga "millatchi" degan tang'a bosilib qatag'on qilindilar⁴¹.

Turkistonni o'rta asrlarga xos qoloqlik, diniy xurofotdan ozod qilish, shariatni isloh qilish, xalqqa marifat tarqatish Turkistonda muhtoryat hukumatini barpo etish uchun kurash, Buxoro va Xivada konstitutsion monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o'rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo'shin tuzish. Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Samarqand va Xivada hur fikrli va taraqqiyparvar kishilarning ayrim guruhlar tomonidan ochilgan madaniy-ma'rifiy yo'nalishdagi jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi⁴².

Turkistonda jadidchilik milliy ozodlik kurashi jarayonida yuzaga kelgan, o'zbek xalqi tarixida yangi sahifani ocha boshlagan ijtimoiy harakat bo'lganligi bilan ajralib turadi. Ularning dunyoqarashida vatanparvarlik, millatparvarlik, ma'rifatparvarlik, taraqqiyparvarlik kabi g'oyalar yetakchilik

⁴¹ http://aks.uz/index.php?option=com_content&view=article&id=8510:tanma55&catid=3:1atanqid&Itemid=6

⁴² Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. Тошкент. 2002-йил. 519-бет.

qilgan. O'lkani mustamlaka zulmidan ozod qilishni jadidlar hamma narsadan ustun qo'yganlar. Jadidlar erk, istiqlolga erishish uchun milliy ongni o'stirish zarurligini anglab yetdilar. Shu orqali milliy uyg'onish yasamoqchi bo'ldilar. Buni esa ta'lim va tarbiyada, ma'rifatda deb bildilar. Mana shuning uchun ham jadidlar yangicha ta'lim va tarbiya tizimini qaror toptirish yo'lida hormay tolmay faoliyat yuritdilar.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida bu harakatning tarixiy ahamiyati nihoyatda katta bo'lgan. Bu davrda jamiyatning ma'naviy inqirozi chuqurlashgan bo'lib, milliy madaniyatni ko'tarmay, umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo'lmay ma'rifat, tarbiyaviy ishlarni keng yo'lga qo'ygan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy taraqqiyotga imkoniyat yaratib bo'lmas edi. Jadidlar, ya'ni ma'rifatchilar millatning ma'naviy kamoloti yo'lida o'zining butun kuchi va iste'dodini safarbar etishga tayyor bo'lgan fidoiylar edi.

Jadidlar millatni qoloqlik, xurofot botqog'idan olib chiqish uchun harakat qilar ekanlar, bunda shariatga qat'iy rioya qilish orqali maktab va madrasalarda ta'lim berish tizimini dunyoviy ilmlarni berish asosida isloh qilish g'oyasini ilgari surganlar va bu borada o'zlari amaliy harakat namunasini ko'rsatganlar.

Hozirgi mustaqillik sharoitida ham Prezidentimiz ta'kidlaganidek "...ma'naviyat, ma'rifatni targ'ib qilish har bir ziyolining vijdon ishidir. Ma'rifatchi fidoyi bo'lmog'i, o'zidan kechmog'i kerak".

Jadidchilik harakatidagi ma'naviylik quyidagilarda yaqqol namoyon bo'ladi: birinchidan, ular ozodlikka, mustaqillikka qon to'kishlarga olib keluvchi turli to'polon, qirg'in-barot urushlar bilan emas, balki aholining savodini chiqarish, ularning ma'rifatini, madaniyatini ko'tarish orqali qaramlikning kelib chiqishi, uning millat taqdiridagi salbiy oqibatlarini tushunib yetish darajasiga ko'tarish orqali erishishni;

Ikkinchidan, milliy ongni rivojlantirish milliy birlikni ta'minlashning asosiy omili ekanligini, milliy birlikning vujudga kelishi esa uni taraqqiyotga olib boruvchi asosiy omili ekanligi g'oyasida;

Uchinchidan, jadidchilik harakati namoyondalari faqat o'z g'oyalarini ilgari surish, uni tashviqot qilish doirasida cheklanib qolmasdan, ular aholining umumiy savodxonligini ko'tarish borasida ko'pgina amaliy ishlarni ham olib bordilar. O'zlarining mablag'lari hisobiga maktab ochdilar, gazeta, kitoblarni bosmadan chiqardilar⁴³.

Tarixning ko'rsatishicha, jadidchilik harakatida orqaga yo'l yo'q edi: u ma'rifatchilik va tor doiradagi madaniylashtirishdan ish boshlab, siyosiy harakatga aylandi, o'z oldiga jamiyat va uni boshqarishni qayta qurishdek vazifalarni qo'ydi. Shunday qilib, jadidchilik fenomeni (noyoblighi) shundaki, keyingi uch asr ichida bu oqim birinchi bo'lib, milliy davlatchilik qurishga urundi, yagona mustaqil Turkiston uchun kurashdi va u milliy mustaqillik g'oyasiga asos soldi, uyqudagi Sharqni uyg'onishga va harakatlanishga, ozodlik, milliy g'urur, o'z buyuk ajdodlari, boy madaniyati va umuman, mustamlaka tuzumning tazyiqi ostida unutilgan barcha qadriyatlarni xotirlashga undadi. Jadidlar ta'limoti – o'z zamonasining haqiqiy ta'limoti edi. Chunki u nafaqat taraqqiyparvar shaxslar, balki fikrlovchi yoshlarni, shuningdek, barcha taraqqiyparvar ziyolilarni o'z ortidan ergashtira oldi. Ularning faoliyati va dasturi kelajak uchun namuna bo'ldi. Jadidlar tomonidan pishib yetilgan ijtimoiy vazifalarni evolyusion – islohatchilik tomoyillari asosida hal etishning ishlab chiqilganligi, ularning formasion – institusional o'zgartirishlarni, mustamlaka tuzumni tubdan yo'qotishning maksimal darajada samarali yo'llarini tanlay bilganliklari, shubhasiz, ularning tarixiy xizmatlaridir⁴⁴.

⁴³http://aks.uz/index.php?option=com_content&view=article&id=8510:tanma55&catid=3:1atanqid&Itemid=6

⁴⁴<http://www.edebi.net/index.php/kardes-edebiyatlar/oezbek-edebiyat/20-21-as-r/601-normurodova-g-b-turkistonda-jadidchilik-harakati>

II BOB. Xiva xonligida Jadidchilik va Yosh xivaliklar xarakati.

2.1. "Yosh xivaliklar" harakatining vujudga kelishi, uning maqsad va vazifalari.

Xiva xonligida jadidchilik harakatining vujudga kelish shart sharoitlar xususida gapiganda, avvalo, 1905-1907-yillardagi birinchi rus burjua demokratik inqilobi, 1907-1909-yillarda Eron va Turkiyada bo`lib o`tgani burjua inqiloblarning samarali tasirini aloxida takidlash lozim. Birinchi rus burjua-demokratik inqilobi mag`lubiyatidan keyin xiva xonligiga badarg`a qilingan N.A.Andreev, A.M.Kislikov, A.S.Safranov, L.S.Babrovskiy, B.E.Kroshilov va boshqa rus sotsial demokratlarning Xiva xonligidagi inqilobiy faoliyati ham xonlikda taraqqiyparvar- demokratik harakatlarning shakllanishida xonlikdan uzoq Rossiya va Turkistonga mavsumiy ishlarga ketib, ishlab qatygan kishilarning ham malum darajada xissalari bor. Xonlikda har yili o`rtacha 3000 yaqin kishi Turkistonning turli shaharlarda mavsumiy ishlarda ishlab ilg`or demokratik g`oyalarni o`zlari bilan olib kelayotgan edi.

Xiva xonligida jadidchilik harakatining shakllanishida turli sabablar bilan xonlikka kelib qolgan tatar millatiga mansub kishilarning ham malum darajada xizmatlari bor edi. Ular o`zlari bilan mahalliy aholiga tushunarli bo`lgan tatar tilida nashr qilingan oynoma va ro`znomalarni keltirib, fuqarolar o`rtasida tarqatayotgan edilar. Jumladan rossiyaning turli shaharlarda chiqayotgan "Vaqt", "Ittifoq", "Taraqqiy", "Yulduz" ro`znomalari, "Din va Maishat" oynomasini, Istambulda turk tilida nashr qilingan "Vaqdat" ro`znomasini va qo`shimcha ko`pgina ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarni xonlik hududida tarqatib yerli aholini, xususan ziyolilarning siyosiy ongining uyg`onishiga ijobiy tasir ko`rsatadilar.

Xivada jadidchilik harakatining shakllanishida xonlikda kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlarning rivojlanishiga jiddiy to`siq bo`lib turgan feodal hamda patriarxal urug`chilik munosabatlarni tugatish, xonlikda mavjud boshqaruv usullarni o`zgartirish zarurligini tushunib yetgan savdo-sanoat qatlamlarning, ilg`or

taraqqiy demokratik kayfiyatdagi ziyolilarning vujudga kelganligi ham katta ro'l o'ynadi.

Xonlik hududida asta sekinlik bilan bo'lsada kapitalistik taraqqiyot kurtaklari-katta kichik zavodlar, Rossiya savdo sanoat kompaniyalari, banklari bo'limlarning paydo bo'lishi, ularda ishlash uchun Rossiyadan ko'plab savodli kishilarning kela boshlashi, ularni mahalliy aholi bilan doimiy muloqati va unga tasiri ham Xiva xonligida Jadidchilik harakatining shakllanishida malum darajada ahamyat kasb etdi⁴⁵.

Shu omillarning tasirida asrimiz boshlarida Turkiston o'lkasida bo'lganidek Xiva xonligiga ham mahalliy burjuaziyasining ilg'or vakillari, savdo sanoat doiralari, mayda burjuaziya va hunarmandlar orasida jadidchilik harakatining tarqalishi uchun zarur sharoit vujudga keldi.

XX asr boshlarida shakllangan Xiva jadidchilik harakati, asosan ikkita oqimdan iborat edi. Uning o'ng oqimi o'lkada rivoj topib kelayotgan savdo sanoat korxonalari egalarini hamda yirik boylarning vakillarini o'ziga bo'ysundirgan edi. Bu oqimga xonning bosh vaziri Islom Xo'ja boshchilik qilardi⁴⁶. Islomxo'ja Xorazmda eng nufuzli bo'lgan Said Otoy xo'jalardan said Muhammadxo'ja mutavallining nabirasi bo'lib, 1872-yilda tugildi. Otasi Ibrohimxo'ja Feruzxonning tog'asi bo'lib, Xonqa hokimi bo'lgan, keyinchalik bosh vazir lavozimini egallagandi. Maktab va madrasa tahsilini olgan Islomxo'ja oldiniga xon saroyida zakotchi sifatida ishlaydi. 1889-yilda esa 17 yoshli Islomxo'jani Feruz Xivadan keyin ikkinchi o'rinda turuvchi Hazoraspdek muhim strategik, savdo shahriga hokim qilib yuboradi. Oradan vaqt o'tib, tajribaga ega bo'lgan Islomxo'ja 26 yoshida Feruzxonning bosh vaziri sifatida yana Xivada ish boshlaydi⁴⁷.

Jadidchilining o'ng oqimi o'z oldiga mamlakatdagi xon hokimiyatini saqlab qolgan xolda, sotsial iqtisodiy islohotlar o'tkazish orqali kapitalistik munosabatlarning rivojlanishiga keng yo'l ochib berishni maqsad qilib qo'ydi.

⁴⁵М.Матниёзов. "Хоразм тарихи". I жилд. Урганч. "Хоразм" 1996-йил. 321-бет

⁴⁶Полвонниёз Хожи Юсупов. "Ёш Хиваликлар Тарихи". Урганч. "Хоразм". 2000-йил. 5-бет.

⁴⁷Умид Бекмухаммад. "Хоразм тарихидан саҳифалар". I-китоб. Тошкент. "Янги аср авлоди". 2009-йил. 107-бет.

Islomxo`ja xonlikda amalga oshirish kerak bo`lgan islohot dasturini ishlab chiqadi. Islohot dasturi 10 banddan iborat bo`lib, o`sha vaqt uchun taraqqiyparvarlik mezonlarga asosalangan edi. Isfandiyarxon dasturni ko`zdan kechirib, 10 bandni ham tasdiqlaydi:

1. Xonlikdagi barcha mansabdor shaxslar davlat tomonidan maosh bilan taminlanadilar. Oldingi qoida bo`yicha, soliqlardan tushadigan daromadlarning bir qismini maosh tariqasida xarajat qilish bekor qilinsin.
2. Dehqonlardan olinadigan yer solig`i, qazuv puli, yiliga begar qazuviga davlat hisobiga 12 kun tekin ishlab berish bekor qilinadi. Soliq to`lovchilarning toifasi qat`iy belgilab qo`yiladi.
3. Zakot, boj va xiroj soliqlari qayta ko`rib chiqiladi, savdo-sotiq soliqlari muvofiqlashtiriladi.
4. Suvdan foydalanish tartibga solinadi. Suvdan foydalanish miroblar yordamida hukumat nazorati ostiga olinadi.
5. Bozor to`lovlari tartibga solinadi.
6. Yo`l qurulishi va ariqlardagi ko`priklarni yahshilashga kirishiladi.
7. Barcha shahar va noibliklarda bemorlarni davolash uchun zamonaviy kasalxonalar quriladi, aholiga tibbiy xizmat ko`rsatish yahshilanadi.
8. Barcha turdagi vaqf yerlar qayta hisob qilinadi va ulardan tushgan daromadlar madaniyat va maorifni rivojlantirishga sarflanadi.
9. Barcha maktablarda o`qitish dasturiga, shuningdek, yangi usul maktablarda rus tili, jug`rofiya, tarix darslik sifatida kiritiladi.
10. Xon xazinasida hisob kitob qattiq nazorat qilinib, aloxida kirim chiqim daftarlari yurutiladi.

Ushbu islohotlarni o`tkazilishi xonlikda qattiq tartib intizom o`rnatish, davlat mulkini talon taroj qilmaslik, soliq to`lovchilarning uni o`zlashtirilishi, oldinlari soliq tufayli kelib chiqadigan isyonlarni oldini olishga sabab bo`lardir. Shu kabi

islohotlar Xorazmga jadidlar orzu qilgan taraqqiy etgan davlatlarning ilmu-fan texnika yutuqlarini olib kirishga xizmat qilardi⁴⁸.

Xiva jadidchilik harakatining soʻl oqimi esa mayda burjuaziya, hunarmandlar va mehnatkashlarning turli tabaqa vakillarini birlashtirgan edi. Bobooxun Salimov soʻl oqimning rahbari edi⁴⁹. Bobooxun Salimov (asl ismi Muhammad) 1874-yil Gurlan bekligida Shayxulislom (qozikalon) Salimoxun oilasida dunyoga keldi. Xiva shahrida Olloqulixon madrasasini tugallab, dunyoviy bilimlarni, shuningdek, arab, fors, rus va boshqa tillarni yaxshi bilgan, shoir sifatida sherlar yozgan. 1910-1918-yillarda otasi oʻrniga Shayxulislom vazifasida ishlagan. Taraqqiylikparvarlik gʻoyalarga moyilligi tufayli jadidchilik harakatining yirik namoyondasiga aylandi⁵⁰. Bobooxun Salimov maslakdosh doʻsti, tajribali muallim, Istanbulda talim olib kelgan Bekjon Raxmanov bilan hamkorlikda “Alifbe”, “Oʻqish kitobi” darsligini yaratdi. Bobooxun Salimov oiliy diniy ulamo-qozikalon boʻla turib, yangicha oʻqitish uslubi, yangiliklarga hayrihohlik bilan qarab, ularni shariat aqidalaridan himoya qilgan boʻlsa, ikkinchi tomondan istiqlool va taraqqiyot uchun kurashuvchilar ishiga zimdan rahbarlik qilgan hamda Yosh Xivaliklar partiyasining tashkilotchilardan biri hisoblangan⁵¹.

Bobooxun Salimovga ergashgan Avaz Oʻtar oʻgʻli, Poyoz Xoji Yusupov, Otajon Safayev, Xudaybergan Devanov, Mulla Bekchan Rahmanov, Otajon Abdalov, Xusaynbek Matmuradov devonbegi oʻgʻli, Mulla Jumaniyoz Sultonmuradov va boshqa koʻpgina taraqqiyparvar kishilar jadidlar harakatining soʻl oqimi azolari edilar⁵².

Xiva jadidlar harakatining soʻl oqimi avval boshdanoq, oʻzlarining Turkistonlik fikrdoshlari qatori Xiva xonligida yangi uslubdagi jadid maktablari ochish orqali xalq ommasining siyosiy aktivligini oʻstirishni oʻz oldlariga maqsad

⁴⁸Умид Бекмухаммад. “Хоразм тарихидан саҳифалар”. 1-китоб. Тошкент. “Янги аср авлоди”. 2009-йил. 109-бет.

⁴⁹ Полвонниёз Хожи Юсупов. “Ёш Хиваликлар тарихи”. Урганч. “Хоразм”. 2000-йил. 5-бет.

⁵⁰ М. Матниёзов. “Хоразм тарихи”. I жилд. Урганч. “Хоразм” 1996-йил. 322-бет.

⁵¹ Отамурод Кушжонов, Нейматжон Полвонов. “Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар” Тошкент. Abu Matbuot-Konsalt. МСНЖ. 2007-йил. 279-280-бетлар.

⁵² М. Матниёзов. “Хоразм тарихи”. I жилд. Урганч. “Хоразм” 1996-йил. 322-бет.

qilib qoʻygan edilar. Progressiv kayfiyatdagi savdo sotiq doiralari jadidlar soʻl oqimini quvvatlab, 1904-yili “Jamiyati xayriya”ni tuzdilar. Bu jamiyatning maqsadi jadidlarga yangi uslubdagi maktablar ochishda yordam uyushtirishdan iborat edi. “Jamiyati hayriya”ning moddiy yordami tufayli Xiva shahrida Qozondagi yangi usul “Muhammadiya” madrasasini bitkazgan Xusayn Qoʻshaqov boshchiligida 1904-yil 10-noyabrda yangi uslubdagi jadid maktabi ochildi. Dastlab bu maktabda 12 ta, keyinroq esa 55 ta bola talim oldi. Shulardan 45 nafari oʻzbek bolalari edi⁵³. Xusayn Qoʻshayev tashabbusi bilan 1906-1907-oʻquv yilida ilgoʻr marifatparvar kishilar va oqsoqollar istak va yordamlari bilan Urganchda qizlar maktabi ochilgan. Feruz Urganchga borib, maktab ishi bilan tanishib, Xusayn Qoʻshayevga sarupo kiygizgan, xazina hisobidan yordan ajratgan⁵⁴.

Mazkur maktabda Xusayn Qoʻshayevning turmush oʻrtogʻi Komila Qoʻshayeva qizlarga talim bera boshladi⁵⁵.

Jadidlar yordamida 1906-1911-yillarda Xoʻjayli, Qoʻngʻirot, Toʻrtkoʻl, Gurlan va Shovotda ham yangi uslubdagi maktablar ochishga kirishildi. Bu maktablarda Xusayn Qoʻshaqov bilan birgalikda Komila Qoʻshaqova, Yusuf Ahmadov, Muhammad Sharif Xudayberganov va boshqalar oʻqituvchilik qildilar. Xiva jadidlari yangi uslubdagi maktablar ochish bilan birga, ular uchun darsliklar yaratish borasida ham katta ishlar qildilar. Bobooxun Salimov maslakdosh doʻsti Turkiyaning Istanbul shahrida tahsil olayotgan Mulla Bekchon Rahmanov bilan hamkorlikda “Alifbe” va “Oʻqish kitobi” darsliklarni yaratdilar.⁵⁶

Diniy va dunyoviy fanlarni qoʻshib oʻqitishga asoslangan yangi uslubdagi jadid maktablari hech mubolagʻasiz aytish mumkunki, Xiva xonligida madaniyat va maorif taraqqiyotiga ijobiy ahamyat kasb etib, aholi oʻrtasida bilim tarqatish

⁵³ Ж.Йолдошев, С.Хасанов.”Жадид тарихшунослиги асослари”.”Халқ талими” журналида. Тошкент. 1992йил. 11-12-сонлар.34-бет.

⁵⁴Отамурод Кушжонов, Нейматжон Полвонов. “Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар” Тошкент.Абу Матбуот-Консалт. МСНЖ.2007-йил..273-бет.

⁵⁵Давлатёр Раҳим-Шихназар Матрасул.“Феруз шох ва шоир қисмати”. Тошкент. Ғафур Ғулом номидаги Нашриёт-матбаа бирлашмаси. 1991-йил.101-бет.

⁵⁶Ж.Йолдошев, С.Хасанов.”Жадид тарихшунослиги асослари”.”Халқ талими” журналида. Тошкент. 1992-йил. 11-12-сонлар.34-бет.

imkonini berdi; qisman bo'lsada xonlikda progressiv kayfiyatdagi kishilar ko'paydi, aholi siyosiy ongining o'sishida muhim ro'l o'ynadi.⁵⁷

Xiva jadidlari ma'rifiy ishlar bilan kifoyalanib qolmasdan, xon tuzumiga qarshi kurash ishi bilan ham shug'ullanganlar. Xiva xonligida jadidchilik harakati juda katta ijtimoiy siyosiy kuchga aylanib, 1914-yil avgustidan boshlab u "Yosh xivaliklar" harakatining g'oyaviy va tashkiliy jihatdan shakllanishi va mustahkamlanishida Polvonniyoz Xoji Yusupov, Xusaynn Matmuradov, Nazir Sholikarov, Jumaniyoz Sultonmuradov, Mulla Bekchon Rahmanov, Bobooxun Salimov va boshqalarning ro'li katta bo'ldi⁵⁸.

Yosh xivaliklar ijtimoiy siyosiy harakati rahbarlarning deyarli barchasi Xiva xonligida sotsial iqtisodiy ijtimoiy siyosiy o'zgarishlar qilishning obyektiv zarurligini tushunib yetgan bilimli, ongli kishilar edi. Bu harakatning vakili Xivalik Polvonniyoz Xoji Yusupov.

Polvonniyoz Xoji Yusupov (1861-1936-yy.) Xiva shahrida mayda savdagor oilasida tug'ilgan. U 10 yoshigacha ota-onasi qanoti ostida g'am-g'ussani bilmay bolalik chog'larini o'tkazgan. Keyin ota-onasi olamdan o'tgach, amakisi Yusufboy uni o'z tarbiyasiga olgan. Xivadagi ko'xna uslub maktabida o'qib, savod chiqargan. So'ngra tijorat ishlari bilan Moskva, Peterburg shaharlariga, Turkiya, Suriya, Misr mamlakatlariga safar qilgan. Bu davlatlarning ijtimoiy iqtisodiy hayoti bilan tanishib katta tasurotlar bilan Xivaga qaytib kelgan. U arab, fors va rus tillarida bimalol gapirisha olgan. Polvonniyoz Xoji Yusupov XIX asr oxirlarida Xivada paydo bo'lgan jadidchilik harakatining so'l oqimi Yosh xivaliklar harakatiga boshchilik qilgan⁵⁹.

U Rossiya va Turkistonda chop qilingan "Tarjimon", "Vaqt", "Yulduz", "Taraqqiyot" kabi ro'znoma va oynomalarni olib, o'z vaqtida o'qib borar edi. U

⁵⁷ Н.Қаландаров.образование и деятельность Хорезмской коммунистической партии. Ташкент; Узбекистон. 1975. с 23.

⁵⁸ Материалы по истории Туркмен и Туркмении.Т.1-М-Л.1938.

⁵⁹ Матёкуб Матниёзов, Абдулла Сотликов."Жаҳон тарихи ва маданиятида Хоразм".Урганч".Хоразм".1999-йил. 167-бет.

Rossiyaga bir qancha marotaba borib, yirik sanoat, fan va madaniyat markazlarda bo'ldi. Musulmonlarning muqaddas sajdagohi Makkada, shuningdek Turkiya, Suriya va Misr kabi mamlakatlarda bo'ldi. Bu davlatlarning siyosiy hayoti bilan yaqindan tanishib, juda katta tasurot bilan Xivaga qaytdi. Polvoniyoz Xoji Yusupovning bizga qo'lyozma xolida 323 varaqdan (645 betli matn) iborat qimmatli estalik meros bo'lib qolgan. Bu esdalik Xiva xonligining inqilob arafasidagi axvolini va inqilobiy harakat tarixini o'rganishda muhim manbadir.

“Yosh xivaliklar” siyosiy harakatining faoliyatini yo'lga qo'yishda Otajon Safayev, Bobojon Yoqubov, Hakimboy Jonmuhammedov, Muhammadyor Xoji Abdullayev, Xudaybergan Devanov, Otajon Xo'ja Niyazov, Rahmonbergan Yoqubov, Muhiddin Umarov, Husaynbek Matmuradov, Mulla Jumaniyoz Sultonmuradov, Nazir Sholikarovlar va boshqalarning xizmati katta bo'lgan.⁶⁰

1918-yil iyul oyida Yosh xivaliklar o'z dasturlarni ishlab chiqdilar. Bunda ular o'zlarini Xiva inqilobiy partiyasi deb ataganlar. “Manifest” tarzidagi bu dasturni dastlab quyidagi punktlari bo'lgan.

1. Xon va uning hukumati tomonidan mamalaktdagi yakka boshqaruvni butunlay tugatish.
2. Xiva hududini Turkiston respublikasiga qo'shib, RSFSR tarkibiga kiritish.
3. Xiva xoni, to'ralar, beklar va vazirlarning boyligi, har xil ko'rinishdagi mol mulklari xalq boyligi deb elon qilish.
4. Yirik yer egalari mulklaridan kambag'allar hayotini yaxshilashda foydalanish.
5. Shariat hukmi bilan vaqflarni barcha daromadini faqat xalq maorifi uchun sarflash.
6. Xivadagi yangi yerlarni o'zlashtirish uchun Amudaryodan ariqlar chiqarish.
7. Bolalarni bepul o'qitish uchun Xivada maktablar ochish.

⁶⁰М.Матниёзов. "Хоразм тарихи". I жилд. Урганч. "Хоразм" 1996-йил. 324-бет.

8. Xivadagi shahar va qishloqlarda bepul davolovchi kasalxona va davolash muassasalarni ochish.
9. Xiva xoni tomonidan kambag'al aholidan majburan tortib olingan yer va boshqa boyliklarni o'z egalarga qaytarish.
10. Asfandiyorxon hukmronligi davrida xazinaga tushgan xalq boyligining nimaga sarflanganligini aniqlashtirish.
11. Ko'priklar va aloqa yo'llarini yahshilashga kirishish.
12. Beklar tomonidan kambag'al aholidan majburan tortib olingan yer va mulklarni o'z egalarga qaytarish.
13. Majburan tekin mehnat (begor) ni butunlay tugatish.
14. Xon va uning hukumatini tugatish, xalq hokimyatini tuzish va yuqoridagi dasturni amalga oshirishga tezda kirishish, xalq hokimyatiga qarshi bo'lgan xon tarafdorlari, burjuaziya va aksilinqilobchilarga qarshi ayovsiz kurash olib borish.

Polvonniyoz Xoji Yusupov yozishicha, ushbu dastur Shokir Siddiqov raisligi va David Bakirov kotibligida o'tkazilgan majlisda qabul qilingan. Yosh xivaliklar inqilobiy qo'mitasi kotibi Otajon mahram Sapayev dasturning Xivani Turkiston respublikasining bir qismiga aylantirishdan iborat bo'lgan 2-moddasiga qarshi chiqib: "ushbu huriyatdan tamomi mahkum xalqlar istifoda qilib, o'z istiqlolini olgan vaqtlarda, biz Yosh xivaliklar o'zimizda bo'lgan mustaqilligimizni yo'q qilsak vatanga, millatga hiyonat qilgan bo'lurmiz, tarixda yomon otli bo'lurmiz", deydi. Lekin ko'pchilik bu moddani olib tashlasak sho'rolar hukumati bizga yordam bermas, degan andisha bilan uning qoldirilishiga ovoz berishgan.

Ushbu dastur aniqlashtirilgan va RSFSRga qo'shilish to'grisidagi moddasi olib tashlanib, 12 moddadan iborat variant "Xiva inqilobchilar partiyasining yaqin vazifalari" nomi bilan 1920-yil 8-yanvarda Toshkentdagi "Известия" gazetasida bosib chiqarilgan⁶¹.

⁶¹Отамурод Қўшжонов, Неъматжон Полвонов. "Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар" Тошкент. Abu Matbuot-Konsalt. МСНЖ.2007-йил.. 292-293-бет.

2.2. 1917-yilda Rossiyada ro'y bergan “inqilobiy” o'zgarishlar va ularning Xiva xonligi siyosiy hayotiga tasiri.

1917-yil fevralda Rossiyda bo'lib o'tgan ikkinchi burjua-demokratik inqilobi Xiva xonligidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonga ham tasir ko'rsatdi. Rossiyadagi inqilobiy voqealar: Yosh xivaliklar faoliyatini yanada aktivlashtirdi. Malumki Yosh xivaliklar partiyasi 1914-yil avgust oyida tashkil qilingan. Uning raisi qilib Polvonniyoz Xoji Yusupov saylangan. Partiyaning xaqiqiy azolaridan Jumaniyoz Xoji Boboniyazov, Otajon Sapayev, Boboxon Yoqubov, Xakimboy Muhammadov, Muhammadyor Abdullayev, Xudaybergan Devanov, Xusaynbek Matmuradov, Mulla Jumaniyoz Sultonmuradov, Nazir Shalikorov va boshqalar edilar⁶². Ular xalq orasida Rossiyada bo'lgan burjua-demokratik inqilobi to'g'risida xaqiqatni targ'ib etish bilan, ommani Xiva xonligida ham mustabid tuzumga qarshi demokratik tartiblar o'rnatish uchun kurashga chaqirdilar.

Yosh xivaliklar ishtirokida 1917-yil aprelida xon istibdodiga qarshi ko'p ming kishilik miting uyushtirildi. Bu mitingni uyushtirish uchun o'sha kuni qulay vaziyat yuzaga kelgan edi.

Malumki 1917-yil fevralida burjua demokratik inqilobi natijasida chorizm ag'darilib, o'rniga muvaqqat burjua demokratik hukumati tuzilgan edi. O'sha hukumatga qasamyod qilish uchun Xiva shahriga rus askarlari to'plangan edi. Bu vaziyatdan foydalanib, Yosh xivaliklar ularga hayrixoxlik belgisi sifatida bir necha yuz kishi bilan askarlar joylashgan kazarmaga bordilar. Harbiy otryad boshlig'i polkovnik Merzlyakov bilan muzokara olib bordilar va Xivada ham Peterburgdagidek demokratik o'zgarishlar qilish rejasini u bilan kelishib oldilar. Yosh xivaliklar o'z maqsadlarini amalga oshirishda polkovnik Merzlyakovdan yordam so'radilar.

O'z navbatida polkovnik Merzlyakov xonni o'ldirmaslik sharti bilan ularga yordam qildi. Yosh xivaliklar tashkil qilgan ko'p ming kishilik qalonnani xon

⁶²O'zRMDA(O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi) F.125.ro'yxat I,d.609.8 varaq

saroyiga boshlab borish uchun bir ro`ta askar jo`natdi va ular boshqargan olomon “Yashasin ozodlik”, “Yo`qolsin zolimlar” shiori ostida Nurullaboy tomon xon saroyiga yo`l oldilar. Yosh xivaliklar partiyasi azolari xondan davlatni konstitutsiya asosida boshqarish, xonning ayrim mulozimlari ular qo`liga topshirilishini talab qildilar. Bu xoqealarning guvohi Abdulla Boltayev esdaliklarda aytilishicha Polvonniyoz Xoji Yusupov va Nazir Sholikarovlar Yosh xivaliklar va shahar aholisi vakili sifatida Asfandiyorxon yoniga kirib o`z talablarini bayon qildilar.⁶³ Birinchi bo`lib Polvonniyoz Xoji Yusupov so`z boshladi “Taksir O`russiyada ishchi va dehqonlar podshoh hukmronligini ag`darib tashlab, xurriyat elon qildilar va “Idorai mashvarat” tashkil qildilar. Biz Yosh xivaliklar hamsizdan hurriyat olib “Idorai mashvarat” tashkil qilish uchun Xorazm fuqarolari nomidan vakil bo`lib xuzuringizga keldik ” dedi. Asfandiyorxon ularga qarab : “Sizlar vakil bo`lib kelgan bo`lsangizlar Xurriyatni kuch bilan olasizlarmi yoki shariat bilanmi?” dedi. Polvonniyoz Xoji Yusupov xonning bu savoliga javoban: “Taqsir xurriyatni shariat bilan olamiz ” dedi. Xon Yosh xivaliklar vakillariga qarab: “Sizlar ham shariat yo`lini bilasizlarmi?” dedi. Asfandiyorxonning bu so`zlari Polvonniyoz Xoji Yusupov va Nazar Sholikarovlarni g`azablantirib yubordi. Nazar Sholikarov o`rnidan sakrab turib, Asfandiyorxonga baland ovoz bilan:”Bizlar shariatni yaxshi bilamiz, lekin sizlar uni bilmaysizlar. Yosh qizlarni nomusiga tegib, uni boshqa bir odamga xotinlikka berish qaysi shariatda bor, yoki qizlarni nomusga tegib ularni urib o`ldirish, badaniga qaynoq suv quyib azoblash, begunox xalqni mol mulkini talash, qiynab o`ldirish qaysi shariatda bor? Agar zarur bo`lsa biz sizning daxshatli qilmishlaringizni dalillar bilan isbotlab berurmiz ”, dedi.

Keyin Polvonniyoz Xoji Yusupov xonga murojat qilib shunday dedi: “Taqsir o`tgan zamonlarda tarixda “Idorai mashrutiya” bo`lgan edi. Bizlar ham shu shaklda “Idorai mashvarat” tashkil qilib siz bilan birlikda maslahatlashib ish olib boramiz”.

⁶³Qarang: Abdulla Boltayev.Estaliklar. Qo`lyozma uning shaxsiy kutubxonasida saqlanmoqda.

Nazir Sholikarov xonga qarab g`azab bilan “Agar bu talablarimiz qabul qilinmas ekan, sizni xon lavozimidan tushurib, o`rningizga boshqa xon, tiklaymiz va undan xurriyat va mashvarat olamiz” dedi. Bundan ko`rinib turibdiki Yosh xivaliklar o`z faoliyatining boshlang`ich davrida Xivada xon hokimyatini saqlagan xolda davlat to`ntarishsiz, har qanday larzalarsiz, tinch parlament yo`li bilan demokratik boshqaruv udumini joriy qilish tarafdorlari edilar. Yosh xivaliklar vakillari bilan suhbatdan keyin noiloj bo`lib qolgan Asfandiyorxon “Men ota bobolarim shariat yo`li bilan ishlab keldilar, albatta men ham shariatdan chiqmasman. Shuning uchun bu ishlar kelajakka muvofiq bo`lsa xurriyat berurmiz” dedi⁶⁴.

Rossiyadagi siyosiy voqealarni chor samoderjaviyasining ag`darilganidan, hamda Xivada ro`y berayotgan siyosiy chiqishlardan qo`rqib qolgan xon Yosh xivaliklar talablarini qabul qilishga majbur bo`ldi. Yosh xivaliklar tomonidan tayyorlangan “Manifest”ga xon imzo chekdi. Xon bilan bir qatorda manifestga qozikalon Xudaybergan Oxun, Xikmatulla Oxun, Ibrohim Oxunlar ham o`z muhrlarini bosdilar. Xon mulozimlardan Ibrohim xo`ja Yoqub xoj`a o`g`lini, Ashir maxram Ali o`g`lini , Ro`zimuhammad mahram Muhammad amin o`g`lini va Ota maxram Mamat mahram o`glini Yosh xivaliklar qo`liga topshirdi.⁶⁵

1917-yil 5-aprelda namoyish qatnashchilari Nurullaboy saroyiga kelib, qo`rqib ketgan Asfandiyorxondan Idorai mashrutiya (Majlis) tuzushga rozilik olganda ham ularning qo`llarida talabnoma yoki manifest yo`q edi. Asfandiyorxon va uchta qozi-domulla Ibrohim oxun alam, qozi-ul-kuzot domulla Hikmatulla Xo`ja oxun, qozi-ul-kuzot domulla Xudaybergan oxunlar imzolagan manifest ham Nurullaboy saroyida shoshilinch yozilgan. Manifest mazmuni quyida to`lalligicha keltiramiz:

⁶⁴ Полвонниёз Хожи Юсупов. “Ёш Хиваликлар Тарихи”. Урганч. “Хоразм”. 2000- йил...9-10-бетлар..

⁶⁵ O`zRMDA F.126.ro`yxat I,d.609.8 varaq

“Xijriy 1335-yil 25-jumad-us-soniy yoki Iso tug`ulishining 1917-yil 5-aprelida, men – Xiva xoni Said Asfandiyor Bahodirxon quyidagi xohishni elon qilaman.”

1. Men o`z fuqarolarimga konstitutsiyaviy boshqaruvni shuning uchun berdimki, ular davlatni o`z xoxishlari, muqaddas shariat qonunlari va zamon talabi bilan umumxalq kengashi orqali saylangan va davlat ishlarini boshqarishga tayinlangan adolatparvar va loyiq kishilar boshqarsinlar.
2. Mening fuqarolarim davlatni boshqarish ishida muqaddas shariat bilan kelishilgan xolda adolatli harakat qilishlari shart.
3. Men fuqarolarimga birlik, tinchlik va ozodlikni shuning uchun berdimki, ular bir birlari bilan aka-uka bo`lib, tinch yashasinlar.
4. Xiva davlatida vazirlik va amaldorlik vazifalarni aholi tomondan saylangan va tayinlangan vijdonli va adolatparvar kishilar bajarsinlar. Xalq xohlamagan vazir, amaldor va hokimlar ishdan olinib, jinoyati isbotlansa muqaddas shariat qonunlari asosida jazoga tortilsin.
5. Barcha amaldor va vazirlarga, davlat xizmatchilarga vazifalarga yarasha xazinadan maosh ajratilsin.
6. Xiva davlatining moliya ishlari uchun hazinachi joriy qilib, kirim-chiqimlarni nazorat qilish topshirilsin.
7. Vazirlar va amaldorlarni nazorat qilish hamda mening yuqoridagi buyrug`imni bajarish uchun aholi o`z vakillarini saylagunga qadar 30 kishidan iborat vaqtli qo`mita tayinlansin. Xiva fuqarolari tinchligini saqlab, o`z ishlarini oshirsinlar va boshqa madanyatli xalqlar qatoridan o`rin olish uchun bor kuchlarini sarflasinlar⁶⁶.

1917-yil 6-aprelda Yosh xivaliklar Ko`xna Ark maydoniga ko`p miqdorda olomon yig`ib, Xondan manifestni o`qib berishni talab qildilar. Xon manifestni 2-3 qatorni o`qigach ko`ziga yosh to`lib, tamog`i bo`g`ilib o`qiy olmasdan qoldi. Xon

⁶⁶Отамурод Кушжонов, Нейматжон Полвонов. “Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар” Тошкент. Abu Matbuot-Konsalt. МСНЖ.2007-йил.287-288-бетлар.

yonida turgan Nazir Sholikarov uning qoʻlidagi manifestni tortib olib, oʻzi oxirigacha oʻqib berdi: “Shu kundan boshlab Xiva xoni agʻdarilib, yangi hukumat tuzildi”, deganda xon yerga qaradi. Asfandiyor va uning amaldorlari juda noxush ahvolda Koʻxna Ark ichkarisiga kirib ketishdi, xalq asta-sekin tarqalishdi. 1917-yil 5-aprelda mamlakatni boshqarishni yangi idorasi “Idorai mashrutiya” tuzildi. Unga Yosh xivaliklardan Polvonniyoz Xoji Yusupov, Xusaynbek Muhammadmuradov saylandi. 1917-yil 6-apreldan ish boshlagan “Idorai mashrutiya ” azolari oʻz vazifalarni belgilab oldilar.

Bazi bir tarixchilar Yosh xivaliklarning aniq bir dasturi boʻlmagan deb davol qiladilar. Biroq, shu haqiqatni qayd qilib oʻtish zarurki, ularning oʻz davri talablariga javob beruvchi dasturi boʻlgan. Bu dasturda oʻsha zamonning dolzarb muammolari koʻtarilgan. “Yosh xivaliklar” xon istibdod tuzumini tugatish Xiva viloyatini Turkiston bilan birlashtirish, xonlar, beklar, qozilar, shahzodalar qoʻlidagi ortiqcha mulkni xalq mulkiga aylantirish, yirik zamindorlar qoʻlidagi ortiqcha mulklarni kambagʻalarga boʻlib berish, vaqf yerlaridan tushadigan mablagʻ hisobiga xalq maorifini rivojlantirish, bolalarni bepul oʻqitadigan maktablar ochish, kasalxonalar qurish aholining kambagʻal qismiga xon tomonidan tortib olingan yerlarni qaytarib berish, yoʻllar va koʻpriklar qurish, majburiy ishlarni bekor qilish kabi talablarni oldinga surganlar.⁶⁷

“Idorai mashrutiya” ning dastlabki amaliy ishlaridan biri shu boʻldiki u mamlakatni daromad daftarini qoʻlga oldi. Majlis qaroriga muvofiq Yosh xivaliklar va boshqa Xiva fuqarolarni xon tomonidan tortib olingan xon mulklari qaytarib berildi. Dehqonlarga yer berish , vaqf, maktab, maorif boʻyicha burjua demokratik tadbirlar koʻtarildi. Bulardan boshqa oʻzbek, turkman milliy munosabatlariga oid “Idorai mashrutiya”da turkmanlarning vakillari boʻlishi masalalari koʻrildi.

Yosh xivaliklar oʻz dasturini amalga oshirishi uchun imkoniyati boricha kurashdilar. Lekin bu partiya ham oʻz oldiga qoʻygan vazifalarni toʻla bajarishga

⁶⁷Qarag: Содиков.О. “Хивада Халқ революциясининг ғалабаси”.Тошкент.«Фан».1967.49-бет.

ojizlik qilar edi. Uning ustiga xon va uning tarafdorlari Yosh xivaliklarga qarshi turish, fitna va tajovuzlar uyushtirib ularning ishiga to'sqinlik qildilar.

1917-yil mart oyida Turkiston muvaqqat hukumati tomonidan Xiva xoni qo'shinlariga bosh qo'mondon qilib tayinlangan general Mirbadalov reaksion kuchlarga tayanib, Yusuf Oxun, Tavdiy Afandi, Mulla Ramazon rahnamoligida Ko'xna Ark yaqinida maxsus miting tashkil etdilar. Bundan maqsad Yosh xivaliklar partiyasini "dindan qaytganlar" deb elon qilish, majlisni tarqatib xon hokimyatini to'la tiklashdan iborat edi. Miting tugagach majlisning /Parlament/ 17 ta faol azolari /asosan Yosh xivaliklar/ qamoqqa olindi, ayrimlari esa qatl qilindi. Yosh xivaliklar partiyasi taqib ostiga olindi. "Majlis" hayatiga yangi azolar, ruhoniylar va feodallar vakillari saylandi. Chunonchi, feodal klerikial oqim vakili Isoq Xo'ja nozirlar raisi. Ortiq Oxun-kengash raisi, Davlat Oxun uning yordamchisi qilib saylandilar.

Shunday qilib, Yosh xivaliklar hokimiyati uzoq davom etmadi. Asfandiyarxon reaksion ruhoniylar va Junayidxon bilan til biriktirib 23-mayda "Idorai mashrutiya"ni tarqatib, azolarini qamoqqa oldi, o'ldirdi, bazi birlari esa chet elga qochib ketdilar. Yosh xivaliklardan o'ch olish uzluksiz davom etdi.

Yosh xivaliklar rahbarlari Polvonniyoz Xoji Yusupov va Nazir Sholikarovlar "dinsizlikda" ayblanib, qozi sudiga berildi. Sudda Nazir Sholikarov "Men Rusiya fuqarosi bo'lganimdan meni xonni sudi emas, balki Rusiya sudi sud qilishi mumkin" deb Rusiya pasportini ko'rsatib suddan beruxsat otiga minib jo'nab ketdi. Polvonniyoz Xoji Yusupov esa Xiva harbiy garnizonida xizmat qiluvchi inqilobiy ruxdagi bir rus askari yordamida suddan qutulib qoldi. Polvonniyoz Xoji Yusupov va Nazir Sholikarovlar Toshkentga, Mulla Jumaniyoz Sultonmuradov Petro-Aleksandrovska, boshqa rahbarlar esa Chorjo'y va Mari shaharlarga qochib ketadilar va o'zlarning faoliyatini davom ettiradilar.⁶⁸

⁶⁸Qarang: Содиков.О. "Хивада Халқ революциясининг ғалабаси". Тошкент. «Фан».1967.15-бет.

Ushbu voqeadan keyin Yosh xivaliklarning xonga bo'lgan "ishonchi" batamom yo'qoldi. Endilikda ular xon va uning mustabid tuzumiga qarshi ochiq kurash yo'liga o'tishga majbur bo'ldilar. Biroq Yosh xivaliklar ixtiyorida xonga qarshi kurashish uchun zarur kuch yo'q edi. Shuning uchun ular Turkistonda va Amudaryo bo'limida (To'rtko'l) o'rnatilgan sho'rolar hukumatiga murojat qilib, xon hokimyatini ag'darishga so'rashga majbur bo'ldilar. Yosh xivaliklarning bu taklifi sho'rolarga va bolsheviklarga juda maqul bo'ldi. Chunki ular tez orada Xiva xonligini tugatib uning o'rniga Xorazm sovet respublikasini tuzish niyatida edilar.

Yosh xivaliklar va demokratik kuchlarga "yordam berish va ularni xon zulmidan ximoya qilish" niqobi ostida bolsheviklar Xiva ichki ishlariga aralashishni kuchaytirdilar.

1917-yil dekabr oyining oxirlarida Polvonniyoz Xoji Yusupov va Nazir Sholikarov Toshkentga yetib keldilar va Turkiston o'lkasi xalq komisserlar kengashiga Xivadagi axvol to'g'risida hisobot berdilar. Bu hisobot maruzasida ular o'zlarini birinchi bor "sotsial-inqilobchilar" deb atagan. Polvonniyoz Xoji Yusupov va Nazir Sholikarov Turkiston Respublikasidan Xiva ishlariga aralashishni va qamoqqa olingan Yosh xivaliklarni xon changalidan qutqarishni iltimos qildilar.

1918-yil boshlarida Toshkentdagi Polvonniyoz Xoji Yusupov raisligida Yosh xivaliklar qo'mitasi shakllandi. Yosh xivaliklar soni o'sa bordi.

Turkiston respublikasi markaziy ijroiya qo'mitasiga yozilgan maruzada Yosh xivaliklar o'zlarining dasturi talablarini bayon qildilar: Xivani Turkiston respublikasi tarkibiga qo'shish, xon istibdodidan qutulish uchun Xivaga yordam berish, shu jumladan qurollangan askarlar yuborish hamda Yosh xivaliklarni qurollantirish va xakozo.

Yosh xivaliklar partiyasining tarqatib yuborilishidan foydalanib, xon amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan isloxotlardan voz kechdi. Xar qanday isloxotlar o'tkazish qonunlarga xilof ish deb belgilab qo'yildi. Ammo bu bilan inqilobiy

harakatlar to'xtab qolmadi. Ayniqsa, 1917-yil oktyabrda Peterburgda, noyabrda Toshkentda, dekabrda Turkistonning amudaryo bo'limi hududida ro'y bergan inqiloblar va ularning Xiva xonligi feodal istibdodiga va mustamlakachilik siyosatiga qarshi harakatlarni ancha jonlantirib yubordi.

Turkiston, Amudaryo bo'limining markazi Petro-Aleksandrovsk (To'rtko'l) va Chorjo'y shaharlari Xiva demokratik kuchlarning tayanch nuqtasiga aylandi.

Ayniqsa oktabr inqilobi g'alabasidan so'ng bolsheviklar Rusiya imperyasining barcha hududlarida, shu jumladan Xiva xonligi mehnatkashlari hamda bu yerda joylashga rus soldatlari ichida inqilobiy tashviqotni kuchaytirib yubordilar. Buning natijasida 1917-yil oxirida Xiva garnizonida turgan rus soldatlari orasida inqilobiy to'lqinlanish ro'y berdi. Soldat va Kazak deputatlari sovetlari rahbarligida kambag'al ishchi va dehqondan chiqqan soldatlar Xiva xoni nafratiga duchor bo'lgan xon hokimyatini ag'darib tashlash tarafdori edilar. Ular "Yashasin ozodlik", "Yo'qolsin zolim xon va uning dumlari-amaldor va sotqin polkovniklar!" xitobi ostida chiqdilar. Xaqiqatdan ham Xiva qo'shinlari qo'mondoni polkovnik I.M.Zaytsev Xiva xoni, ataman Dutov, Junayidxon bilan til biriktirib, inqilobiy chiqishlarni qurol kuchi bilan bostirish, sho'rolarga hayrixox bo'lgan barcha odamlarni taqib ostiga olish, qamoqda yotgan 17 ta Yosh xivaliklarni qatl qilish rejasini tuzgan edilar.⁶⁹

Inqilobiy kayfiyatdagi soldatlar Yosh xivaliklarni o'z ximoyasiga olib, o'limga hukm qilinganlardan ko'pisini Xivadan qochip ketishga imkoniyat tug'dirib berdilar. Ular o'z qomandirlari buyruqlariga bo'ysunishdan bosh tortdilar. Askarlar xizmatdan o'z ihtiyori bilan ketib qolish holati ko'paya bordi.

Bundan cho'chib qolgan xon va Xiva qoshinlari qo'mondonligi Xivadagi inqilobiy qismlarni tezlik bilan Petro-Aleksandrovskka jo'natishga qaror qilishdi.

Xon va mustamlakachilik zulmiga qarshi chiqishlar va g'alayonlar xonlikning boshqa shahar va qishloqlarda ham ro'y berdi.

⁶⁹Qarang:K,B,Mухаммадбердиев,"История Хорезмской революции",Ташкент. «Фан»,1986,С 44,

Xalq ommasining inqilobiy harakatlari hali sust bo'lsada, asta sekin jonlana bordi. Hukmron tabaqalar 'mahalliy feodallar va savdagorlar o'rtasida ziddiyatlar kuchaydi, avvalo chorizm, keyin muvaqqat burjua hukumati kabi tayanchlaridan mahrum bo'lgan xon hokimiyati ham ancha ojizlanib qoldi.

Bu hodisalar xonlikda asta sekin inqilobiy vaziyatni vujudga kelayotganidan dalolat bera edi.

Xalq demokratik harakatining kuchayishi, Turkistonda, jumladan uning Amudaryo bo'limida sho'rolar hukumatining o'rnatilishidan xavfga tushgan Xiva xoni, ruhoniylar va boshqa reaksiya kuchlar sho'rolar hukumatiga va barcha demokratik harakatlarda qarshi keskin kurash olib bordilar.

Toboro kuchayib borayotgan xalq noroziligiga va sovetlarga qarshi kurashish uchun katta qurolli kuch zarur edi. Bunday kuch Xiva xonida yo'q edi. O'sha davrda xiva xonligining doimiy qo'shinlari bo'lmagan. Mayjud xon navkarlari yetarli darajada harbiy ishga o'rgatilmagan va yomon qurollangan edilar. Xiva xoni o'z hokimiyatini rus askarlari yordamida saqlab turgan 1918-yil boshlarida polkovnik M.I.Zaytsev boshchiligidagi rus askarlari Xivadan jo'nab ketishi bilan xon o'zining oxirgi harbiy tayanchidan mahrum bo'ldi⁷⁰.

2.3. “Yosh xivaliklar” xayrixoxligida bolsheviklar tomonidan Xivada amalga oshirilgan davlat to'ntarishi, Xiva xonligini tugatilishi hamda Xorazm Xalq Sovet Respublikasini (XXSR) o'rnatilishi.

Xiva hukmron doiralarga eski tuzumni himoya qiladigan, boylar va amaldorlar osoyishtaligini taminlay oladigan, inqilobiy harakatlarni qurol kuchi bilan bostirishga qobil kuch zarur edi. Shuning uchun ham Xivaning hukmdor doiralari Junayidxonga tayangan xolda o'z maqsadlarini amalga oshirish yo'lga

⁷⁰ Полвонниёз Хожи Юсупов. “Ёш Хиваликлар Тарихи”. Урганч. “Хоразм”. 2000- йил. 16-бет.

tushdilar. Junayidxon bu vaziyatdan darxol o'z manfaatlari yo'lida foydalandi. Aholining talaygina ongi past qismi, eshonlar uning atrofiga yig'ilib, katta kuch to'pladilar.

1918-yil yanvar oyida Junayidxon o'z qurolli kuchlari bilan Xiva shahrini ishg'ol qildi va Asfandiyorxondan o'ziga itoat qilishni talab qildi. 'mahalliy feodallar noroziligini oldini olib Junayidxon rasmiy ravishda xonni o'z taxtida qoldirdi. Majlis Asfandiyorxon tomonidan tarqatib yuborildi. Amalda butun xonlikni boshqarish jilovi Junayidxon qo'lga o'tdi⁷¹.

Junaidxon Qurbon Mamed (Muhammad) sardor (1857. Hozirgi taxta tumani, Turkmaniston-1938, Xirot atrofi, Afg'oniston) istiqlolchilik harakati namoyondalardan. Mustamlakachi chor Rossiyasi hamda sho'ro qo'shinlariga qarshi kurashgan. Yovmut qabilasi Bayramali urug'ining Junayd tarmog'iga mansub. Nizoli masalalarni adolatli xal qilganligi va jasurligi uchun turkmanlar orasida uning shuhrati keng yoyilgan. U uzoq yillar davomida o'z urug'ining mirobi, qozisi, oqsoqoli, harbiy boshlig'i bo'lgan. Chorizmning Xiva yurishlari paytida yosh Qurbon Mamed turkman yovmut yigitlari qatori rus bosqinchilarga qarshi janglarda qatnashgan. Asfandiyorxon Junaidxonni turkman qabilalarning sardori etib tayinlagan(1915-yil). Turkman oqsoqollari uni Junaidxon deb elon qilingan⁷².

1918-yil yanvar oyida Zaytsev boshchiligidagi rus qo'shinlari Xiva xonligi hududidan chiqib ketdi. Asfandiyorxon o'zining harbiy tayanchidan mahrum bo'ldi. Barcha turkman urug'i muhrdorlari va oqsoqollarini o'ziga bo'ysundirgan Junayidxon Xiva ulamolari fatvosi bilan xonlik markaziga qarshiliksiz kirib bordi. Asfandiyorxon ilojsiz qolib, Junayidxon hukmronligini tan oldi va "davlat mansablariga turkmanlarni qo'ya boshladi"⁷³. Mamlakatda talonchilik, boshboshdoqlik, bosqinchilik, zulm avj oldi. Majburiy mehnat va soliqlar

⁷¹Каранг:И.В.Погорелский,"История Хивинской революции и Хорезмской народной советской республики 1917-1924, Ленинград, изд-во Ленинградского университета, 1984,С,79-80,"

⁷² Ўзбекистон миллий энциклопедияси.3-жилд.Тошкент.2002-йил. 639-бет..

⁷³ O'zbekiston MDA.2786-fond,1-ro'yhat.31-ish.109-varaq.

ko`paytirildi. Asfandiyorxon turkman sardorlari qo`li bilan Yosh xivaliklarni taqib ostiga olgan va qo`lga tushganlarni qatl etib, mol mulklarni talashga ruxsat bergan. Junayidxon Xiva shahridan boshqa joylarda yashashga daxlsizlik xati olgan Rahmonbergan Yaqub o`g`li, Otojon xo`ja Niyazov, Qurbonboy Qalandarovlar kabi Yosh xivaliklar Toshhovuz shahrida ushshoq begi Saidmuhammad tomonidan vaxshiylarcha qatl qilingan⁷⁴.

Turkiston muhtoriyati hukumati bilan aloqa o`rnatish va bu hukumatdan yordam so`rash uchun Qo`qonga kelgan Yosh xivaliklar amaliy yordam ololmay, Toshkentga qaytib kelganlar.

Mamlakatda turkmanlar tasiri kuchaygan bir paytda katta kuchga ega bo`lgan Shommikal xibsdagi Husaynbek devonbegini, katta tasirga ega bo`lgan Xon Eshon mahbuslar Salay Yusuf o`g`li, Eshonqul Jabborqul o`g`li, Muhammadamin Eshchon o`g`li, Yusufjon Ahmadjon o`g`illarini xondan so`rab ozod qildirdilar. Asfandiyorxon bundan norozi bo`lib, Junayidxondan o`z dushmanlarini jazolab berishni so`raydi. Junayidxon 1918-yil mayda so`roq qilish uchun o`z o`g`li Eshshiga ularni olib kelishni buyuradi. Lekin Asfandiyorxondan va Ashir mahramdan pora olgan Eshshi, Husaynbek Matmuradov devonbegi o`g`li, Ishoq Xo`ja Ibrohim Xo`ja o`g`li, Abdusalom Xo`ja Islomxo`ja o`g`li, Tolib Mahsum Avazxo`ja o`g`illarini qumga olib ketib, "Kurtko`l" degan joyda qatl qiladi⁷⁵.

1918-yil avgust oyida Toshkentdan To`rtko`lga yetib kelgan Mulla Jumaniyoz Sultonmuradov Xiva xonligidan ko`chib o`tgan, xon va Junayid zulmidan norozi bo`lgan barcha kishilarni Yosh xivaliklar partiyasi azoligiga qabul qila boshladi va Yosh xivaliklar partiyasi To`rtko`l komitetiga asos soladi<sup>76</sup>. Aynan shu komitet Amudaryo bo`limiga xon va turkmanlar zulmidan qochib o`tgan Xivaliklarni birlashtirib, xonlik tuzumidan norozi kuchlar orasida targ`ibotni tashkil qilgan hamda ularning umumiy dushmani Junayidxonga qarshi

⁷⁴ O`zbekiston MDA.125-I-fond,1-ro`yxat,609-ish,36-varaq;

⁷⁵ Полвонниёз Хожи Юсупов. "Ёш Хиваликлар Тарихи". Урганч. "Хоразм". 2000- йил. 167-169-бетлар.

⁷⁶ O`zbekiston MDA.72-fond,1-ro`yhat,1-ish, 66-varaq; Xorazm davlat arxivi. 124-fond, 1-ish, 37-varaq.

kurashda uyushtira olgan. Ular Xiva, Gurlan, Xo`jayli, Mang`it, Mari kabi shahrlarda Yosh xivaliklarning yashirin tashkilotini tuzganlar. 1918-yil 30-oktabrda Toshkentdagi Yosh xivaliklar inqilobiy komiteti qabul qilgan “Xitobnoma” va boshqa varaqalarni tarqatishda faol qatnashdilar⁷⁷.

Markazdan uzulib qolgan Turkiston Sovet respublikasidan Yosh Xivaliklar so`ragan harbiy yordami ijobiy hal qilinmadi. Shunda Polvonniyoz Xoji Yusupov xonlikdagi ilg`or fikrli kishilarning va o`zining dushmani Asfandiyorxondan o`ch olish va uni o`z ittifoqchisi Junayidxon qo`li bilan yo`q qilish maqsadida Jumaniyoz Sultonmuradov va Yusuf devonlar bilan kelishib, Junayidxonga yetkazishni so`rab, Yusuf devon nomiga xat yozdi. Xatda Polvonniyoz Xoji Yusupov Asfandiyorxondan Turkiston XKS raisi Kolesovdan Junayidxon zulmidan xalqni ozod qilish uchun askar so`raganligini, Asfandiyorxon imzosi qo`yilgan xatni o`z ko`zi bilan ko`rganligi va bu habarni cho`ri orqali Junayidxonga yetkazish kerakligini aytdi. Maktubni o`kib ko`rgan Junayidxon o`g`li Eshshiga Asfandiyorxonni o`ldirishga buyruq beradi. Eshshi, Ushoq bek va boshqa sarkardalar bilan 1918-yil 1-oktabrda Asfandiyorxonni o`z saroyida qatl qilganlar⁷⁸.

Junayidxon Yosh xivaliklar “Soxta” maktubini olgach, undan Asfandiyorxonni yo`q qilish uchun foydalandi. Ammo o`zi to`gridan to`g`ri xonlik taxtiga chiqa olmas edi⁷⁹.

3-oktabr 1918-yilda Junayidxon Xiva xonligi taxtiga Asfandiyorxonni katta akasi Sayyid Abdullani xon qilib tayinladi. Sayid Abdulla jismoniy jihatdan ojiz, irodasiz odam edi. U endi Junayidxon qo`lidagi qo`g`irchoq xonga aylanib qoldi. Barcha davlat lavozimlariga Junayid o`z odamlarni tayinladi.

⁷⁷Отамурод Кўшхонов, Неъматжон Полвонов. “Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар” Тошкент. Abu Matbuot-Konsalt. МСНЖ.2007-йил.297-бет.

⁷⁸Полвоннийёз Хожии Юсупов. “Ёш Хиваликлар Тарихи”. Урганч. “Хоразм”. 2000- йил. 177-179-бетлар..

⁷⁹Отамурод Кўшхонов, Неъматжон Полвонов. “Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар” Тошкент. Abu Matbuot-Konsalt. МСНЖ.2007-йил. 298-бет.

Xiva xalqiga mislsiz azob uqubat keltirgan Junayidxon harbiy general diktaturasi to 1919-yil oxirlarigacha davom etdi. Har bir turkman otlig`idan (30 tanob yerdan) 30-40 tilla va har bir tanob o`zbek yerlaridan 5 tilladan qo`shimcha yer solig`i undira boshladi. Undan tashqari malum yoshga to`lgan har bir erkak kishi Junayidxon qo`shinlarida navkar sifatida xizmat qilishga majbur edi.

Junayidxonning inqilobiy harakatga qarshi tadbir choralardan biri Yosh xivaliklarni tor mor qilish edi. 1918-yil may oyida Xivada Yosh xivaliklarning ko`zga ko`ringan arboblardan Xusaynbek Matmuradov, Isak Xo`ja Xo`jayev, Abdusalim Xoji islomxo`jayev, Xoji Avazberdi Eshonov va ulardan tashqari Xivaning bozor maydonida Yosh xivaliklar partiyasi azolardan yana 24 kishi otib o`ldirildi⁸⁰.

Junayidxonning harbiy feodal siyosati albatta xalqni g`azabini kuchaytirmay qo`ymadi. Junayidxon siyosatiga qarshi chiqishlar o`zbek va turkman mehnatkashlari o`rtasida toboro ko`paya bordi. Xatto Yosh xivaliklar tarafdorlari bo`lgan Turkman urug` aymoq boshliqlari Shommi kal va G`ulom Alilar ham Junayidxonga qarshi kurash boshladilar. Qo`ng`irotda Qutlimurod boy degan shaxs o`z mablag`i hisobiga 103 kishini qurollantirib Junayidxonga qarshi kurashga otlandi. Unga Mang`it begi ham o`z qurolli otryadi bilan kelib qo`shildi. Junayidxonga qarshi kurashchilar soni kun sayin ko`paya bordi.

Xiva xonligida aksil inqilobiy kuchlarga va ajnabiy davlatlarning yordamiga tayangan Junayidxon o`ziga qarshi chiqqan barcha kuchlarni shafqatsizlik bilan bostirishga, Amudaryo o`ng qirg`oqida o`rnatilgan sho`rolar hukumatini yo`q qilishga mahkam bel bog`ladi.

O`z qo`shini safini mustahkamlash maqsadida Junayidxon Xiva aholisi ichidan askarlikka yaroqli qismini majburan jalb qildi, dehqonlarni ot aravasi,

⁸⁰Каранг:И,В,Погорелский, "История Хивинской революции и Хорезмской народной советской республики 1917-1924, Ленинград, изд-во Ленинградского университета, 1984,. 79-бет..

oziq-ovqati va yem hashakini tortib oldi. Shu tariqa uning otliq askarlari soni 4000ga, “O`ljachilar” soni esa 6000 taga yetdi⁸¹.

1918-yil sentabr oyi o`rtalariga kelib o`zining Xiva xonligi hududidagi asosiy dushmanlar Qo`shmamdxon, G`ulom Ali va Shamurod baxshilarni yengib, Junayidxon Amudaryo bo`limiga qarshi bir qancha bor hujum uyushtirildi.

Junayidxon harbiy xavfni oldini olish maqsadida Amudaryo bo`limida qizil askarlar qismlari tuzila boshlandi. Petro-Aleksandrovsk soveti, uning harbiy seksiyasi hamda “Yosh xivaliklar” partiyasi rahbariyati Turkiston muxtor sovet sotsialistik respublikasidan yordam so`rab, Junayidxonga qarshi Qizil askarlar qismlari yuborishni iltimos qildilar. Bunga javoban Turkiston respublikasi hukumati Chorjo`ydan Petro-Aleksandrovskka Chorjo`y harbiy komissari N.A.Sheydakov qo`mondonligida 100 kishilik qizil askarlar otryadini jo`natdi. Bu otryad miltiqlardan tashqari 2 ta pulemyo`t va 2 ta to`p bilan qurollangan edi⁸². N.A.Sheydakov otryadi 20-sentabr 1918-yilda “Verniy” teploxotida Amudaryoda suzib, Petro-Aleksandrovsk shahriga yetib keldi. U Amudaryo bo`limining harbiy komissari qilib tayinlandi⁸³.

Turkiston respublikasi harbiy komissari K.Osipov xorijiy ishlar vazirining o`rinbosari so`l eser P.A.Domogatskiy bilan birgalikda 19-sentabr 1918-yilda Turkiston respublikasining Xiva va Amudaryo bo`limi ishlari bo`yicha favqulotdagi vakili qilib eser shtabs kapitan V.P.Konoplevni tayinlashdi. 1918-yil oktabr oyi oxirida Konoplev 120 kishilik otryad bilan Petro-Aleksandrovskka yetib keldi. U shahar soveti va harbiy rahbarlikni o`z qo`liga oldi. Konoplev tashabbusi bilan Ural Kazaklardan 3 ta (har biri 100 kishidan) otliq otryad tuzulib, ulardan sho`rolarga qarshi qarshi foydalanish ko`zda tutilgan edi. Ayniqsa Ataman Filchev rahbarligida Kazak yuzliklari sovetlarga qarshi bo`lgan⁸⁴. Petro-Aleksandrovsk shahrini Junayidxon hukmidan himoya qilishda Sultonmurodov rahbarligidagi

⁸¹Qarang: O`sha asar 85-bet.

⁸²Qarang: O`sha asar.83-bet.

⁸³Qarang: O`sha asar.83-bet.

⁸⁴Qarang: O`sha asar.83-84bet.

Yosh xivaliklar partiyasi, ayniqsa “Xiva inqilobiy partiyasi” deb atalgan soʻl qismi katta ishlar qildi⁸⁵.

Xivadan qochib Petro-Aleksandrovska kelgan demokratik kuchlar Yosh xivaliklar inqilobiy qoʻmitasi atrofida toʻplana boshladilar. Ular ichidan keyinchalik Axmadjon Ibragimov, Vaisov, V.Polvonniyazov kabi Xiva inqilobiy faol ishtirokchilari va harbiy rahbarlari yetishib chiqdilar.

Petro-Aleksandrovska shahrida boʻlayotgan voqealardan Junayidxon toʻla xabardor edi. Shuning uchun u tezlik bilan hujum qilishga shoshildi. U 24-noyabr 1918-yilda Petro-Aleksandrovska qamal qildi. Qamal 11 kun davom etdi. 3-dekabrda, dushmanni 7 ta hujumini mardonavor qaytarib shahar himoyachilari qontr hujumga oʻtdilar. Junayidxon otryadlari tartibsiz xolda Shobboz tomon chekina boshladilar. Bu jangda Junayidxon 1700 ga yaqin askaridan ajralib qoldi⁸⁶.

Petro-Aleksandrovska qamal bilish bilan bir vaqtda Junayidxon Nukusga ham askar yuborib uni oʻrab olgan edi.

Amudaryo boʻlimiga Junayidxon tomonidan tugʻdirilayotgan xavfni yoʻq qilish maqsadida Kaspiy orqasi fronti Chorjoʻy shaharida temiryoʻlchilar va koʻngillilar hisobiga 250 kishilik otryad toʻplab, Chorjoʻy kengashi azosi Naumov boshchiligida Petro-Aleksandrovska yordamga joʻnatdi. Petro-Aleksandrovska mavjud 3 ta roʻta va Naumov boshchiligida kelgan rotalardan birichi Xiva inqilobiy bataliyoni (598 kishi) tuzildi. 3 ta Kazak yuzliklardan (546 kishi) otliq askarlar polki shakllandi⁸⁷.

1919-yil yoziga kelib Xivadan Petro-Aleksandrovska qochib kelganlar soni 20 mingga yetdi. Petro-Aleksandrovsdagi “Yosh xivaliklar” qoʻmitasi Sultonmuradov boshchiligidagi Xiva demokratik kuchlarni toʻplash markaziga

⁸⁵ Каранг: Досумов.Я.М. “Очерки истории Каракалпакской АССР (1917-1927)”. Ташкент. 1960.С 133.

⁸⁶ Черпунов Б. Джунаидхана на турткуль. Воспоминание участника в кН: К десятилетию Бухарской и Хорезмской революции. Ташкент. 1930. С 177.

⁸⁷ Каранг:И.В.Погорелский,”История Хивинской революции и Хорезмской народной советской республики 1917-1924, Ленинград, изд-во Ленинградского университета, 1984,С 87.

aylandi. Bu markaz qochoqlardan harbiy otryad tuzib, Junayidxon diktaturasini tugatishni maqsad qilib qo'ydi.

Xiva xoni va Junayidxon bilan olib borilgan muzokaralar kutilgan natija bermagandan so'ng "Yosh xivaliklar" harakatining Petro-Aleksandrovsk, Toshkent va Chorjo'y qo'mitalari Junayidxon diktaturasini faqat qurol kuchi bilan ag'darish zarurligi haqidagi qarorga keldilar.

Yosh xivaliklarning obro' e'tibori xalq o'rtasida toboro o'sa bordi. Chunki ular xon iste'dodini ag'dargandan so'ng xalqqa keng erkinliklar berish, uni xonlar, ruhoniylar va bosmachilar zulmidan ozod qilish, yer va suv berish xaqida radikal sotsial-iqtisodiy rejalarni amalga oshirishga vada berdilar. Ular Junayidxonga qarshi bo'lgan Turkman qabila boshliqlari bilan yaqindan aloqa o'rnatdilar. Xiva xonligining barcha hududlarda yashirin ish olib boruvchi guruhlar tuzdilar, Petro-Aleksandrovskdagi Xiva qochoqlarini qurollantira boshladilar.

1919-yil yoziga kelib Amudaryo bo'limida, umuman Turkiston respublikasida siyosiy axvol ancha keskinlashdi. Amudaryo bo'limining shimoliy qismida, Zair degan aholi yashaydigan punktda Kazak atamani Filchev yuzlik otryadini qurolsizlantirish hamda Chimboy sovetini mustahkamlash uchun A.F.Xristoforov rahbarligida 17 kishilik favqulotdagi komissiya hamda 80 kishilik baynalmilalchilar qurolli otryadi yuborildi. 14-avgust 1919-yilda ataman Filchev sovetlarga qarshi g'alayon ko'tardi va favqulotdagi komissiyani 17 azosini ham ushlab, otib o'ldirdi. Tez orada qo'zg'olonchilar Amudaryo bo'limining shimoliy qismini Nukus, Zair, Mo'ynoq orasini qo'lga kiritdilar. Qo'zg'olonchilar bosib olgan hududda ataman Filchev boshliq o'z hukumatini tuzdilar.

Junayidxon bu hukumatni darxol tan oldi va u bilan yaqindan aloqa o'rnatdi. 1919-yil sentabrda Junayidxon Kolchak hukumati bilan ham aloqa bog'ladi. Biroq, ular Turkistonda, jumladan Amudaryo bo'limida o'rnatilgan sovet hukumatini yo'q qila olmadilar. 1919-yil 17-avgustida N.Sheydakov rahbarligida Petro-Aleksandrovskka qizil askarlar otryadi yetib keldi. Sheydakov Kavkaz orqasi

frontiga qarashli Xiva askarlar guruhining qo`mondoni qilib tayinlandi. 1919-yil sentabrda Petro-Aleksandrovska shahrida harbiy xolat elon qilindi. Shahar Sovet inqilobiy komitetiga aylantirilib, uning boshlig`i qilib N.Sheydakov qilib tayinlandi. 1919-yil sentabrda Orenburg fronti tugatilib, Qizil askarlarning bir qismi Chorjo`ydan Petro-Aleksandrovska yuborildi.

Yosh xivaliklar xalqning siyosiy ongini o`stirish, barcha demokratik kuchlarni birlashtirish va mehnatkash ommani xon zulmi va Junayidxon bosqinidan ozod qilish uchun keng tashviqot olib bordilar.

Ular Amudaryo bo`limida siyosiy va harbiy xolatning mustahkamlagan xolda Xiva xoni va Junayidxonga qarshi xalq g`azabining kuchayganligidan oqilona foydalanib, Xivada xalq “inqilobi”ni amalga oshirish uchun katta tayyorgarlik ko`ra boshladilar⁸⁸.

1919-yilning oxirlarida Kolchak va Ural kazaklari tomonidan qo`llab quvatlanayotgan va qurollantirilayotgan Junayidxon Amudaryoning o`ng sohilida harakat qilayotgan ataman Filchev va xon Maksim otryadalari bilan til biriktirib, Petro-Aleksandrovska shahriga qarshi hujum tayyorlash rejasini tuzdilar. 1919-yil noyabr oylarining boshlarida Filchev va xon Maksim otryadlari Nukus shahrini egallab Petro-Aleksandrovska shahrini xavf ostida qoldirdilar. Shaharni himoya qilish uchun barcha chora tadbirlar ko`rila boshlandi. 1919-yil 3-noyabr Yosh xivaliklar inqilobiy qo`mitaning (revkom) qo`shma majlisi bo`lib o`tdi. Bu majlisda Turkomissiyaning Xiva ishlari bo`yicha vakili ham qatnashdi. Majlis Junayidxon va uning tarafdorlariga qarshi barcha inqilobiy kuchlarni birlashtirgan xolda harakat qilishga qaror qildi.

Sheydakov otryadi 360 piyoda, 150 otliq askarlar, 125 to`pchi va pulemyo`chilar, “Xivinest” paraxodining 40 ta matrosidan iborat edi⁸⁹.

⁸⁸М.Матниёзов. “Хоразм тарихи”. II жилд. Урганч. “Хоразм” 1997- йил. 23-бет.

⁸⁹Каранг: Очерки истории Каракалпакской АССР, т.2. (1917-1963г). Ташкент, 1964, с 73; Шербаков. Н.М. Таким было начало. Ташкент. 1964 г с 70.

19-20-noyabr 1919-yilda Sheydakov otryadi Amudaryo orqali paraxodlarda suzib, Nukusga 15 chaqirim qolganda qirg'oqqa tushdi va dushman kuchlari bilan jangga kirishdi.

Sheydakov otryadi jangchilari shiddatli kurashib, Nukus shahrini ishg'ol qildilar. Filchev va xon Maksim otryadlari qisman mag'lubiyatga uchragan bo'lsalarda chekinib asosiy kuchlarni saqlab qoldilar so'l soxilida Junayidxon va uning tarafdorlari hali katta kuchga ega edilar.

Amudaryo bo'limida harbiy ahvolni yanada mustahkamlash maqsadida TurkTMIK (Turkiston Markaziy Ijroiya qo'mitasi) Prezidiumi maxsus komissiya tuzib, uni amudaryo bo'limiga yuborishga qaror qildi. Petro-Aleksandrovsk va Xivada Turkiston Markaziy Ijroiya qo'mitasi komissiyasi azosi qilib, Petro-Aleksandrovsk "Yosh xivaliklar" qo'mitasining raisi Sultonmuradov tayinlandi. Turkkomissiyaning 20-noyabr 1919-yil maxsus qarori bilan G.B.Skalov RSFSRning Xivada to'la xuquqli vakili qilib tayinlandi. Xiva askarlari guruhining bosh qo'mondoni qilib esa Turk fronti shtabi operativ bo'limining raisi N.M.Sherbakov tayinlandi⁹⁰.

G.B.Skalov va N.M.Sherbakovlar Petro-Aleksandrovskka yetib kelgach, N.Sheydakov qo'mondonligidagi Xiva sakarlar guruhi deb atalgan harbiy kuchlarni qayta shakllantirib, uni Amudaryo guruhi harbiy kuchlari deb atadilar. Bu harbiy gurux Chorjo'ydin tortib, to Orol dengizigacha bo'lgan qismlarni o'z ichiga oldi. Uning tarkibida ikki otryad: Sheydakov boshchiligidagi shimoliy va V.Uryadov boshchiligidagi janubiy otryadlar shakllandi. Amudaryo guruhi harbiy kuchlarning qo'mondoni qilib M.N.Sherbakov tayinlandi.

Yana shuni qayd qilib o'tish joizki, du davrga kelib Xiva xonligida Junayidxonga qarshi nafaqat xo'rlangan o'zbek aholisi, balki turli milliy guruh va

⁹⁰Каранг:И.В.Погорелский,"История Хивинской революции и Хорезмской народной советской республики 1917-1924", Ленинград, изд-во Ленинградского университета, 1984,С,101

siyosiy oqimlar ham kurashga kirishgan edi. Bu kurashda har bir sotsial gurux, tabaqa, siyosiy partiya o`z maqsadini ko`zladi.

Shakllanayotgan milliy burjuaziya, ruhoniylarning o`rta pastki qatlami Yosh xivaliklar raxnamoligida siyosiy kurashda ishtirok qilib, g`alaba qilgan taqdirda burjua demokratik tipidagi “O`z milliy” hukumatini barpo qilish niyatida edilar. Turkman qabila urug` boshliqlarining (Qoshmamadxon, G`ulom Ali, Shamurod baxshi) maqsadi mavjud patriarxal feodal tizimini saqlagan xolda, Junayidxonni qulatib, uning o`rnini egallashdan iborat edi.

Sovet hukumatining ashaddiy dushmani Junayidxon va uning tarafdorlari Xorazmda xalq harakatini bostirish, amudaryo bo`limida barpo qilingan sovet hokimyatini yo`q qilish hamda zo`ravonlikka asoslangan o`z hukmronligini saqlash va mustahkamlash niyatida edilar.

Xiva xoni, uning amaldorlari, yirik yer egalari esa vaqtincha Junayidxon qurolli kuchlarga tayanib, demokratik harakatlarni bostirish, xon despotizmiga asoslangan patriarxal feodal tizimni saqlab qolish va mustahkamlash niyatida edilar.

Ozchilikni tashkil qilgan ishchilar hamda ko`pchilik mehnatkash dehqonlar, hunarmandlar, mayda savdogarlar, baqqollar, Yosh xivaliklar va bolsheviklar rahnamoligida, RSFSR va Turkiston sovet hukumatlarning moddiy va harbiy yordamiga tayanib, Junayidxon diktaturasi hamda Xiva xoni hukmronligini tugatib, Xorazmda Xalq Respublikasini o`rnatishni ko`zda tutgan edilar.

Shunday qilib. 1919-yil Xiva xonligida shunday siyosiy vaziyat, vujudga keldiki, faqat Yosh xivaliklar, bolsheviklar, Turkman urug`-qabila boshliqlari til biriktirib, yagona bir milliy frontga jipslashib, xalq inqilobiy harakatiga, qizil askarlarning harbiy kuchiga tayanib, Junayidxon diktaturasini qulatishlari va Xivada inqilob g`alabasi uchun qulay sharoit tug`dirishlari mumkin edi.

Inqilob boshlanishiga turtki bo'lgan narsa 1919-yil kuzida turkman urug'qabila boshliqlari bir qismining Mulla O'roz Xojimamedov boshchiligida Junayidxonga qarshi chiqishlari bo'ldi.

Mulla O'roz Xojimamedov boshchiligidagi Petro-Aleksandrovska delegatsiya kelib, Junayidxonga qarshi qurolli yordam berishni iltimos qildi va keyin Toshkentga jo'nab ketdi.

Vujudga kelgan vaziyatni hisobga olib G.B.Skalov va Amudaryo guruhi harbiylarning vaqtincha qo'mondoni vazifasini bajarayotgan N.M.Sherbakov darhol Xiva voqealariga aralashishga qaror qildilar.

Amudaryo guruhi qo'shinlarning janubiy otryadi dekabrning 25-kuni muzlagan Amudaryoni kechib, uni so'l qirgo'qiga o'tdilar.

N.A.Sheydakov boshchiligidagi Shimoliy otryad 25-dekabrda Petro-Aleksandrovskdan Nukus yo'nalishi tomon hujum boshlab 29-dekabrda Xo'jayli shahrini egaladilar.

Shimoliy otryad o'z tarkibiga qo'shilgan O'zbek, Qoraqalpog'iston va Turkman qo'zg'olonlari bilan birgalikda Ko'xna Urganch tomon yo'l oldi. 7-yanvar 1920-yilda Ko'xna Urganch sho'ro qo'shinlari tomonidan ishg'ol qilindi.

Sho'ro qo'shinlari va isyonchilar otryadlari Yangi Urganch, Ko'xna Urganch, Xo'jayli kabi muhim markazlarni egallashlari bilan Junayidxon taqdiri xal bo'lgan edi. Junayidxon askarlarni safidan yangi turkman qabila urug' boshliqlari o'z otryadlari bilan chiqib keta boshladilar. Turkman urug' qabila boshliqlari (Shamurod baxshi, G'ulom Ali, Yaxshi Galdi va boshqalar) ham Junayidxonga qarshi kurashga qo'shildilar.

16-yanvarda Alieli (Ilolli), 18-yanvarda esa Toshxovuz shaharlarini egalladilar. Janubiy guruh qo'shinlari bilan G'ozovot rayonida bo'lgan shiddatli

janglarda Junayidxon 200 dan ko`p askaridan ajralib, Badirkent qalasini tashlab, qolgan 100 ga yaqin askarlari bilan Qoraqum sahrolarida g`oyib bo`ldi⁹¹.

Shunday qilib, 1920-yil yanvar oyining o`rtalarida Junayidxon Qizil askarlar va isyonchi xalq otryadlar tomonidan tor mor qilindi. 1-fevral 1920-yilda qizil qo`shinlar jangsiz Xiva shahriga kirib keldilar.

Junayidxonga qarashli ochiq qurolli kurash rosa ikki oydan ko`proq vaqt davom etdi. Bu kurashda hal qiluvchi qurolli kuch Qizil askarlar edi.

Junayidxon qo`lidagi qo`g`irchoq xon Said Abdulla xalq ishonchidan butunlay mahrum bo`ldi. Ayniqsa, Yosh xivaliklar xalqning ishonchini qozonib, real kuchga aylandilar.

1920-yil 1-fevralda harbiy kuchlar bilan birga Xivaga Yosh xivaliklar qo`mitasi ham kelgan edi. 2-fevral kuni Said Abdulla xon Xiva taxtidan voz kechganligi haqida manifestga imzo chekishga majbur bo`ldi. Bu manifest 4 ming aholi qatnashgan katta mitingda o`qib eshittirildi.

Xiva xoni taxtdan tushirilgach, xonlikda butun hokimyat 5 kishidan iborat muvaqqat inqilobiy hukumat revkom qo`liga o`tdi. Revkom raisi lavozimiga Yosh xivaliklar To`rtko`l qo`mitasining boshlig`i Sultonmuradov qo`yildi. Bobooxun Salimov, Jalol Oxun (oily ruhoniylar vakili) hamda Turkman inqilobiy otryadlarning boshliqlari Qo`shmamadxon va Mullao`roz Xojimuhammedovlar revkom azosi qilib tayinlandilar⁹².

Undan tashqari 1920-yil 9-aprelda Muvaqqat inqilobiy hukumat tarkibida tarmoqlar bilan shug`ullanuvchi boshqa nozirlar ham tashkil qilindi.

Shayxutdin Xasanov-harbiy nozir, Polvonniyoz Xoji Yusupov- davlat nazorati noziri, Eshjon qori Jobborqulov- xalq xo`jaligi noziri, Mulla Bekchon Rahmanov-xalq madanyati va maorifi noziri, Bobooxun Salimov- adliya noziri

⁹¹Каранг:И.В.Погорелский,"История Хивинской революции и Хорезмской народной советской республики 1917-1924", Ленинград, изд-во Ленинградского университета, 1984. С 109

⁹²Qarang: O`sha asar. 110-bet

qilib tayinlandilar. Kundalik masalalarni xal qilish maqsadida 3 kishidan iborat prezidium tashkil qilinib . uning tarkibiga Mulla Jumaniyoz sultonmuradov (rais) Polvonniyoz Xoji Yusupov va Bobooxun Salimovlar (rais muovinlari) kirdilar⁹³.

Davlatni boshqarish sud va adliya ishlari qayta ko`rib chiqildi. Hukumatning maxsus qarori bilan Oliy inqilobiy sud va adliya nozirligi tashkil qilindi. Oliy inqilobiy sud inqilob dushmanlari bilan kurash olib borish maqsadida tuzilgan bo`lib u oily jazo- otishga hukm chiqarishgacha jazo qo`llash huquqiga ega edi. Sudga Olimjon Akchurin raislik qildi. Qo`shmamadxon Sapayev va Bobooxun Salimovlar sudning azolari etib saylandilar.

Umuminsoniy va fuqarolik ishlarini ko`rib chiqish va xal qilish maqsadida tashkil qilingan xalq sudiga Abdulvoxid Karimov raislik qildi.

Xiva shahrida tashkil qilingan maxsus militsiya boshqarmasi tartib intizomni saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish ishlari bilan shug`ullandilar. Unga Nazir Sholikarov raislik qildi.

Jumhuriyatning mamuriy boshqarish tizimida ham o`zgarishlar yuz berdi. 1920-yil 9-aprelda Xiva xonligida mavjud bo`lgan 20 beklik o`rniga 20 tuman sho`rolari tashkil qilindi. Bu xalq vakillarining I Butun Xorazm qurultoyini tayyorlashda katta ahamiyatga ega bo`ldi.

1920-yil fevralda Xivada ro`y bergan, tarixga “Xalq inqilobi” nomi bilan kirgan davlat to`ntarilishi chorizm mustamlakachilik tizimiga va uning vassaliga aylangan xon feodal istibdodiga qarshi Yosh xivaliklar boshchiligida Rossiya va Turkiston sho`rolar hukumatlari yordamida amalga oshirilgan o`ziga xos burjua-demokratik tipidagi inqilob edi. Uning maqsadi birinchi bosqichda – Junayidxon diktaturasini qulatish bo`lsa, ikkinchi bosqichda- Xorazmda xon despotik tuzumini ag`darib, o`rniga demokratik respublika o`rnatish edi.

⁹³Qarang: O`sha asar. 114-bet

Inqilobning harakteridan kelib chiqqan holda uni harakatlantiruvchi kuchlari ham shakllandi. Asosan inqilobda Xiva xonligidagi o`rta va mayda burjua qatlamlar savdogarlar, ziyolilar, hunarmandlar, dehqonlar hamda ozchilikni tashkil qilgan ishchilar va nixoyat Qizil askarlar qatnashdi. Bu inqilobga asosan Yosh xivaliklar partiyasi rahnomalik qildi.

Demak bu inqlob RSFSR hukumatining bevosita ishtiroki va yordamida, Qizil askarlar qurolli kuchlariga tayangan holda Xiva xalqining xon despotik tizimidan norozi qatlamlar tomonidan amalga oshirildi va tuzum yo`q bo`lib, mamlakatni burjua demokratik yo`lidan rivojlanish uchun keng imkoniyatlar yaratib berdi. Biroq keyinchalik bolsheviklarning hukumat tarkibiga kirib olishi va mamlakatni sho`rolashtirish bu tabiiy, evolyutsion rivojlanish jarayonlarni buzulishiga olib keldi. Chunki bolsheviklar Leninning o`z rivojlanishida orqada qolgan xalqlar "Ilg`or rus" ploretariat yordamida kapitalistik rivojlanish bosqichidan sakrab birdaniga sotsializmga o`tishlari mumkin degan, hayotda o`zining oqlamagan nazaryasiga asoslanib, xali patriarxal feodal munosabatlari hukm surayotgan jamiyatda sotsializm yo`liga o`tdilar. Bu maqsadni amalga oshirish uchun zo`ravonlikka tayanib xususiy mulkni mulkdorlardan tortib olish va shu negizda ijtimoiy sotsialistik mulkni barpo qilishga kirishdilar. Bu xol yo`qsillar bilan mulkdorlar o`rtasida sinfiy kurashlarning keskinlashishiga, ag`dar-to`ntarlarga, ko`p miqdorda qon to`kishga, fuqarolar urushiga olib keldi. Ular rivojlanishning evolyutsion yo`lini inkor etib, zo`ravonlik yo`lini tanladilar.

Xorazm sharoitini hisobga olib , burjua-demokratik, evolyutsion yo`lni qo`llab quvvatlagan Yosh xivaliklarni taqib ostiga oldilar. Ularni burjua millatchiligida ayblab, quvg`in surgun qila boshladilar.

Bizning fikrimizcha Yosh xivaliklar tanlagan burjua demokratik, evolyutsion rivojlanish yo`li Xorazm uchun maqul yo`l edi. Xozirgi mustaqillik sharoitida sho`rolar hukumatining birinchi yillardayoq bug`ilgan iqtisodiy tizimga, yani ko`p mulkchilikka asoslangan bozor iqtisodiyotiga qayta o`tayotganimiz yaqqol dalil bo`lishi mumkin.

Shuni ham qayd qilish joizki inqilob bu o`lkaga chetdan Rossiyadan keltirilgan edi. Inqilob yasab, fuqarolar urushi qilib minglagan odamlarni qonini to`kish, shahar va qishloqlarni vayron qilish yo`li bilan bir jamiyatdan ikkinchi jamiyatga o`tish bizning xalqimiz uchun yot narsa bo`lgan.

Junayidxon bosqini va xon zulmiga qarshi xalq kurashidan ustalik bilan foydalangan bolsheviklar o`zlarini xalq g`amxo`ri, ozodlik, erkinlik, mustaqillik tarafdorlari sifatida namoyon qilib, xaqiqatda esa o`lkani chorizm mustamlakachiligidan yangi shakldagi sho`rolar mustamlakasiga aylantirish uchun kurashdilar⁹⁴.

⁹⁴М.Матниёзов. "Хоразм тарихи". II жилд. Урганч. "Хоразм" 1997- йил. 27-28-29-бетлар.

Xulosa.

“Jadidizm” arabcha soʻz boʻlib, yangi degan manoni anglatadi. Jadidizm burjua-liberal, millatchilik harakati sifatida XIX asrning 80-yillarida tatar burjuaziyasi orasida vujudga kelgan. XX asr boshlarida Rossiyadagi musulmon maktablarning buyuk isloxotchisi Ismoil Gaspirali Jadidchilikka asos solgan. U Bogʻchasaroyda (Qrimda) eski maktablarning murakkab oʻqitish tizimiga nisbatan yengil qiroat usuliga asoslangan maktab ochib, unda oʻzi dars bergan, darsliklar yozgan, chorizmning sharqdagi mustamlakachilik siyosatini fosh qiluvchi oʻtkir asarlari bilan Turkiston jadidlari yetakchilari Mahmudxoʻja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidخانov, Tavallo, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy, Abdulhamid Choʻlpon va boshqalarning dunyoqarashiga katta tasir oʻtkazgan.

Turkistonda, Buxoro va Xiva xonliklarda ochilgan yangi usul maktablari ruslashtirish siyosati shuning uchun chorizm maʼmurlari bu harakatga qarshi kurash boshladi.

Jadidlar Turkistonda XIX asrning oxirlarda paydo boʻlgan ilgʻor usullarni yoqlagan marifatparvarlarga boʻlib qolmay, ayni chogʻda, turkiy, islomiy xuquqiy merosning millat ichida keng yoyilishi uchun ham maqsad qilib qoʻygan edi.

Jadidchilikning ijtimoiy asosini shakllana boshlagan milliy burjuaziya tashkil qildi.

Turkistonda Jadidchilik harakati XX asr boshida malum siyosiy tus ola boshladi va 1905-1907-yillardagi rus burjua demokratik revolyutsiyasi davrida mahalliy burjuaziya manfaatlarini ifodalovchi gʻoyaviy oqim sifatida faollashdi. Turkistondagi jadidchilik harakatiga Munavvar Qori (Toshkentda), Mahmudxoʻja Behbudiy (Samarqandda), Boboʻxun Salimov (Xivada) rahbarlik qildilar.

XX asr boshlarida shakllangan Xiva jadidchilik harakati, asosan, ikkita oqimdan iborat edi. Uning o'ng oqimi o'lkada rivoj topib kelayotgan savdo sanoat korxonalari egalarini hamda yirik boylarning vakillarini o'ziga bo'ysundirgan edi. Bu oqimga xonning bosh vaziri Islom Xo'ja boshchilik qilardi. Jadidchilining o'ng oqimi o'z oldiga mamlakatdagi xon hokimyatini saqlab qolgan xolda, sotsial iqtisodiy islohotlar o'tkazish orqali kapitalistik munosabatlarning rivojlanishiga keng yo'l ochib berishni maqsad qilib qo'ydi.

Xiva jadidchilik harakatining so'l oqimi esa mayda burjuaziya, hunarmandlar va mehnatkashlarning turli tabaqa vakillarini birlashtirgan edi. Boboxxun Salimov so'l oqimning rahbari edi. Boboxxun Salimov (asl ismi Muhammad) 1874-yil Gurlan bekligida Shayxul-islom (qozikalon) Salimoxun oilasida dunyoga keldi. Xiva shahrida Olloqulixon madrasasini tugallab, dunyoviy bilimlarni, shuningdek, arab, fors, rus va boshqa tillarni yaxshi bilgan, shoir sifatida sherlar yozgan.

Xiva jadidlar harakatining so'l oqimi avval boshdanoq, o'zlarining Turkistonlik fikrdoshlari qatori Xiva xonligida yangi uslubdagi jadid maktablari ochish orqali xalq ommasining siyosiy faolligini o'stirishni o'z oldlariga maqsad qilib qo'ygan edilar.

Xiva jadidlari ma'rifiy ishlar bilan kifoyalanib qolmasdan, xon tuzumiga qarshi kurash ishi bilan ham shug'ullanganlar. Xiva xonligida jadidchilik harakati juda katta ijtimoiy siyosiy kuchga aylanib, 1914-yil avgustidan boshlab u "Yosh xivaliklar" harakatining g'oyaviy va tashkiliy jihatdan shakllanishi va mustahkamlanishida Polvonniyoz Xoji Yusupov, Xusayn Matmuradov, Nazir Sholikarov, Jumaniyoz Sultonmuradov, Mulla Bekchon Raxmanov, Boboxxun Salimov va boshqalarning ro'li katta bo'ldi.

XX asr boshlarida Rossiyada ro'y bergan (1905-1907.1917-yil fevral) "inqilob"lari podsho Nikolay II hukmronligini ag'darilishi "Yosh xivaliklar"ga katta tasir qildi. Ular ham rus proletariat kabi Xiva xonligida xon hkimyatini

ag`darib, demokratik tartib o`rnatish zarurligini to`la angalab yetdilar. Ular Xiva ko`chalarida ko`p ming kishilik namoyishlar uyushtirdilar, hatto Asfandiyorxon oldiga borib, undan “Idorai mashrutiya” tuzumiga ruxsat berishni talab qildilar.

Xonlikda kuchayib borayotgan “Inqilob”iy harakatlardan cho`chib qolgan xon “Yosh xivaliklar” taklifini qabul qilishga majbur bo`ldi. Biroq Xiva xoni vaziyatni yomonlashtirib, reaksiya kuchlarga tayanib, Junayidxonni qurolli kuchlari bilan Xivaga taklif qilib, “Yosh xivaliklar” harakatini tor mor qilishni rejalashtirgan edi. Bu xon boshiga balo bo`ldi. Junayidxon Asfandiyorxonni qatl qilib, Xivada butun hokimyatni o`z qo`liga oldi va o`z diktaturasini o`rnatdi.

Bu xodisa “Yosh xivaliklar” uchun katta xavf tug`dirdi. O`sha paytda Rossiyada oktabr inqilobi bo`lib burjua muvaqqat hukumati ag`darildi, bolsheviklar hukumatni qo`lga olib sovetlar tuzumini barpo qildilar.

Ular chor Rossiyasiga qaram bo`lgan barcha o`lkalarda, jumladan Xiva xonligida ham sovetlar respublikasini o`rnatish niyatida edilar. “Yosh xivaliklar” faqat bolsheviklar, ularning qurolli kuchlari yordamida Junayidxon diktaturasini Xivada xonlik tuzumini yo`q qilib, xalq demokratik tartiblari o`rnatish maqsadlariga erishishlari mumkin edi. Buning uchun “Yosh xivaliklar” ixtiyorida qurolli kuchlar yo`q edi. Ular bolsheviklar qurolli kuchlariga tayanib o`z maqsadlarini amalga oshirish uchun kurash boshladilar.

1920-yil fevral oyida Junayidxon qurolli kuchlarini tor mor qilib, bolsheviklar “Yosh xivaliklar” bilan Xiva shahriga kirib keldilar. 1920-yil 2-fevralda Xiva xoni Said Abdulla taxtdan tushurildi. Shunda qilib, bolsheviklar muholifatchi kuchlar bilan Xivada davlat to`ntarishi yasab, hokimyatni o`z qo`liga oldilar.

1920-yil 27-30-aprel kunlari Xorazm xalq vakillarining birinchi qurultoyi bo`lib o`tdi. Bu tasis qurultoy xiva xonligi ag`darilganligi va endilikda mamlakat qadimiy nom bilan Xorazm deb atalishini elon qildi. Yangidan shakllangan davlat “Xorazm Xalq Sovet Respublikasi” (XXSR) deb nomlandi.

Qurultoyda yangi hukumat tarkibi ham saylandi. XXSR nozirlar kengashining raisi lavozimiga “Yosh xivaliklar” partiyasining raisi Polvonniyoz Xoji Yusupov, uning muovini qilib Sultonmuradov saylandi. Qurultoyda Xorazm xalq sovet respublikasining birinchi konstitutsiyasi, davlat gerbi va bayrog`i ham tasdiqlandi. Yosh xivaliklar hukumati Xorazm sharoitini, bu harakat hali feodalizm qoldiqlarini hisobga olgan holda o`z milliy siyosatini yurgiza boshladi. Bu esa RSFSR hukumatiga, uning Xivadagi muhtor vakillariga yoqmadi.

Asosiy ijtimoiy iqtisodiy siyosiy masalalar bo`yicha XXSR hukumati bilan RSFSR hukumati o`rtasida kelishmovchiliklar, hatto nizolar ham paydo bo`ldi. Shu boisdan RSFSR hukumatiga maqul bo`lmagan XXSR davlat arboblari taqib ostiga olindi, davlat to`ntarishlar qilindi. “Yosh xivaliklar”ning ko`zga ko`ringan rahbarlari quvg`un surgun qilindi, qamoqqa tashlandi, o`ldirildi. Qutulib qolgan “Yosh xivaliklar” rahbarlari Toshkent, Chorjo`y va To`rtko`lga qochib ketdilar. Bu ahvol to 1924-yil noyabrigacha, XXSR okrug sifatida O`zSSR tarkibiga qo`shilguncha davom etdi. Shu bilan “Yosh xivaliklar” harakati barham topdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. Каримов.И.А.”Тарихий хотирасиз келажак йўқ “ Т.: “Шарқ”. 1998-йил.
2. Каримов.И.А.”Тарихий хотирасиз келажак йўқ “, Биз ўз келажакимизни ўз қўлимиз билан қурмамиз”. Т.:”Ўзбекистон” 1999-йил.
3. Каримов.И.А.”Озод ва обод ватан, Еркин ва фаравон ҳаёт-пировард мақсадимиз.”Т.:”Ўзбекистон” . 2000-йил.
4. Каримов.И.А. “Юксак маънавият-енгилмас куч”.Т.: “Маънавият”. 2008-йил.

Asosiy adabiyotlar.

1. Бегали Қосимов.. “Исмоилбей Гаспрали”. “Ўзбегим”. – Т.: 1992-йил.
2. Begali Qosimov.”Milliy Uyg`onish” Toshkent. “Ma`naviyat” 2002-yil.
3. Полвонниёз Хожи Юсупов. “Ёш Хиваликлар тарихи”. Урганч. “Хоразм”. 2000- йил.
4. М.Матниёзов. ”Хоразм тарихи”. I жилд.Урганч.”Хоразм” 1996-йил.
5. М.Матниёзов. ”Хоразм тарихи”. II жилд.Урганч.”Хоразм” 1997- йил.
6. Отамурод Қўшжонов, Неъматжон Полвонов. “Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар” Тошкент.”Abu Matbuot-Konsalt”. MSNJ.2007- йил.
7. Матёқуб Матниёзов, Абдулла Сотлиқов. “Жаҳон тарихи ва маданиятида Хоразм”. Урганч. ”Хоразм”.1999- йил.
8. Mahmudxo`ja Behbudiy, Qasdi safar. Tanlangan asarlar, 2-nashr.T.: “Manaviyat” 1999-yil,
9. Давлатёр Рахим. Шихназар Матрасул. “Феруз шох ва шоир қисмати”. Тошкент. “Ғафур Ғулом номидаги Нашриёт-матбаа бирлашмаси”. 1991-йил.
10. Умид Бекмухаммад. “Хоразм тарихидан саҳифалар”.1-китоб.Тошкент. “Янги аср авлоди”.2009-йил.

- 11.Содиқов.О. “Хивада Халқ революциясининг ғалабаси”. Тошкент.
“Фан.”1967 г.
- 12.Rustambek Shamsutdinov, Shodi Karimov ,O'ktamjon Ubaydullayev
.”Vatan tarixi” 2-kitob.Toshkent. “Sharq”.2010-yil.
- 13.Р.Х.Муртазаева. “Ўзбекистон тарихи”.Тошкент.“Янги аср авлоди”.
2003-йил.
14. Қосимов.Б. Абдулла Авлоний. Т.:, 1979; Қосимов.Б.“Излай-излай
топганим”. Т.:, 1983; Абдулла Авлоний. “Туркий гулистон ёхуд ахлоқ”.
Т.:, 1992.;”Усон миллат”. Т.:, 1993; Қосимов Б., Долимов У. “Маърифат
даргалари”. Т.:, 1990. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси.1-жилд
- 15.Abdulla Boltayev.Estaliklar. Qo'lyozma uning shaxsiy kutubxonasida
saqlanmoqda.
- 16.Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси.3-жилд.Тошкент.2002-йил.
- 17.O`zRMDA(O`zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi
- 18.А.Н.Самойловичю Драматическая литература сартовбб Вестник Импыо
об-ва вост,»№-5,Петроград,1917 г.
- 19.Н.Каландаров. образование и деятельность Хорезмской
комунистической партии. Тошкент; “Узбекистон”. 1975 г.
- 20.Материалы по истории Туркмен и Туркмении. Т.1-М-Л.1938 г.
- 21.К.Б.Мухаммадбердиев,”История Хорезмской революций”, Тошкент.
“Фан”. 1986 г.
- 22.И.В.Погорелский, ”История Хивинской революции и Хорезмской
народной советской республики 1917-1924”, Ленинград, изд-во
Ленинградского университета, 1984 г.
- 23.Досумов.Я.М. “Очерки истории Каракалпакской АССР (1917-1927)”.
Тошкент. 1960 г.
- 24.Черпунов Б. Джунаид-хана на турткуль. Воспамяние участника в кН:
К десятилетию Бухарской и Хорезмской революции. Тошкент. 1930 г.
- 25.Очерки истории Каракалпакской АССР,т2.(1917-1963г). Тошкент,
1964,с 73; Шербаков.Н.М. Таким было начало.Тошкент. 1964 г.

26.История Хорезмской Народной советской республики. /сборник документов/. Тошкент. 1976 г.

Gazeta va jurnallar

1. “Oyna” jurnali.1913-yil. 5-son
2. ”Turkiston viloyating gazetasi”. 1914-yil.18-son. 2-mart.
3. Hoji Muin. Mahmudxo`ja Behbudiy, “Zarafshon” gazetasi.1923-yil 25-mart.
4. Мунаввар Қори Абдурашидхонов. Хотираларидан. (жадидчилик тарихидан лавҳалар). Нашрга тайёрловчи ва изохлар муаллифи С.Холбоев. «Шарқ», Т.: 2001. Холбоев С. Мунаввар Қори. «Фан ва турмуш»,Т.: 1991, 4-сон; Ўша муаллиф. Ойболта остидаги сўз.«Турон тарихи». Т.:1992; Ўша муаллиф. Мунаввар Қори Абдурашидхонов. Ўрта Осиёдаги педогогик фикрлар тадқиқотидан лавҳалар. Т., «Фан», 1996; Сирожиддин Ахмад. Мунаввар Қори. «Шарқ юлдузи», 1992, 5-сон.
5. «Шарқ юлдузи», 1992 йил, 5-сон.
6. Ж.Йолдошев, С.Хасанов.”Жадид тарихшунослиги асослари”. ”Халқ талими” журналида. Тошкент. 1992-йил. 11-12-сонлар.

Internet saytlar.

1. www.aks.uz
2. www.edebi.net
3. www.google.uz